

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**  
**“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI**

**“Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish texnologiyasi” mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi  
bitiruvchi 4-kurs talabasi  
Qurbonova Dilnura Abdurashid qizi

\_\_\_\_\_  
**ILMIY RAHBAR:**  
O'qituvchi Ne'matov B.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

\_\_\_\_\_sonli bayonnomasi “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_2018 yil

**Termiz – 2018**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>12</b>
<b>1.1. O'quvchi-yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi kontsepsiyasining mohiyati.....</b>	<b>12</b>
<b>1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....</b>	<b>18</b>
<b>1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning mavjud holati.....</b>	<b>31</b>
<b>I bob yuzasidan xulosalar.....</b>	<b>38</b>
<b>II BOB. OILA VA TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGI ASOSIDA O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING SAMARADORLIGI.....</b>	<b>39</b>
<b>2.1. O'qituvchi-o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish omili sifatida.....</b>	<b>39</b>
<b>2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish texnologiyasi va didaktik ta'minoti.....</b>	<b>49</b>
<b>2.3. O'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlari tahlili.....</b>	<b>60</b>
<b>II-bob yuzasidan xulosalar.....</b>	<b>64</b>
<b>Umumiy xulosa va tavsiyalar.....</b>	<b>65</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>66</b>
<b>Ilovalar .....</b>	<b>69</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Erkin demokratik jamiyat qurish yo‘lidan ildam borayotgan mamlakatimizda oilani mustahkamlashga alohida e‘tibor berilmoqda. Oila tinch, mustahkam va farovon bo‘lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Bu esa o‘z navbatida ma‘naviy va ruhiy muhitning sog‘lomligi, islohatlar muvaffaqiyati uchun tegishli zamin yaratadi.

Ma‘naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo‘lib, bu ezgu maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat‘iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Avvalambor, 1997 yildan boshlab yurtimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy masalalarni yechish maqsadida kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilish, katta-katta ishlarni amalga oshirish uchun yillarga nom berish an‘anasiga muvofiq 2000 yilni "Soglom avlod yili", 2008 yilni "Yoshlar yili" 2010 yilni esa "Barkamol avlod yili" deb atalishining o‘zi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Hozirgi o‘tish jarayonida fuqarolar, ayniqsa yoshlarning ongi va dunyoqarashi qay darajada shakllanishiga befarq qarab bo‘lmaydi. Kelajakda barkamol, bilimdon va ishbilarmon jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan, ongli va faol, Vatan oldidagi burchiga sadoqatli, mustaqil fikr va dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash barchamizning burchimiz. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxs mutaassiblikdan ozod holda aql-idroki, kuch-g‘ayratiga tayanib, vijdonan, halol mehnati bilan faravon turmushga intiladigan bo‘lishi darkor. Barkamol avlod tarbiyasi va ularning mukammal ta‘lim olishi masalalari davlat siyosati maqomi darajasida jamiyat uchun eng dolzarb masalalardandir. 2010 – yil mamlakatimiz hayotida “Barkamol avlod yili” deb e‘lon qilingani bejiz emas albatta. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e‘lon qilindi. Ushbu qarorda davlat dasturi doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar belgilanib, “Barkamol avlod yili” Davlat dasturining 11 ta

asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.<sup>1</sup>

Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 14-sessiyasida "Biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan atrofda sodir bo'layotgan voqea hodisalarga mustaqil yondashadigan har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak" deb ta'kidlaganlar.

O'zbekiston Respublikasida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni ta'lim muassasalarida joriy etish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Shunga binoan ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlash-tirish bo'yicha hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning umumiy qoidalaridan biri bo'lgan "Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida qolaversa o'quvchi-yoshlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish orqali o'quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda"<sup>2</sup>.

Ammo shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi kun, bugungi davr bu sohadagi ishlarni yaxshilash yoshlarni manfaatlarini ta'minlashga va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani yanada takomillashtirish orqali yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlarni ochib berishni taqazo etmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ma'naviy boylik sifatida irodali insonlar borasida quyidagi fikrlarni bildiradilar: "Hayotda odam ba'zan o'zini yo'qotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi, keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar mavjud. Shunday paytda ishda va hayotda, jamiyatda og'ir

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Barkamol avlod yili" Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risidagi Qarori.  
// Xalq so'zi, 2010 yil 28 – yanvar.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. 1997-y. 29-avgust – B.4-5.

savdolarga duch kelganda kim o'zini yo'qotmasligi mumkin? O'ylaymanki, birinchi navbatda o'z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqa oladi. Ma'naviy boylik shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi".<sup>3</sup>

Demak, insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning fikrlashi va tafakkuri ham rivojlanib boradi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Zero, **fikr mustaqilligi** – bu o'quvchining muayyan narsa, voqea-hodisa, jarayon, dalil, ma'lumotlarga nisbatan shaxsiy munosabati, qarashi va shu munosabat yoki qarash bo'yicha tegishli muammoni hech kimning ko'magi va ko'rsatmasisiz, zakovati, salohiyatiga tayangan holda, tegishli usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilishidir.

Respublikada ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning bosh omillaridan biri ham teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero, o'zgalar fikriga qaram bo'lish, turli yot mafkuralarga ergashish jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir.

Ta'limdagi yangilanish faqat o'quvchilarga yangicha bilim berishni nazarda tutmasdan, balki jamiyat, davlat, tabiat va mehnatga munosabat tizimini o'zgartirishni ham ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda ko'rsatib o'tilganidek, demokratik jamiyatda inson erkin va mustaqil fikrleydigan qilib tarbiyalanishi zarur<sup>4</sup>.

Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli-oliy natijasidir. U faoliyat bilan bog'liq bo'lib, mustaqil ish jarayonida shakllanadi. Narsa va hodisalarning mavjudligi aloqadorlikdan iboratdir. Aloqadorlik buzilsa, mavjudlikda ham o'zgarish ro'y berishini anglash, isbotlash, tushuntirish, fikrlash shakllanishining tadrijiy bosqichlaridir. Fikrlash insonga hayot baxsh etadigan kuchdir. Ya'ni, inson mustaqil fikrlash orqali tirik. Fikrsiz inson yaratish va o'sishga qodir bo'lmagan o'lik jussaga aylanadi. Shu boisdan ham Birinchi Prezidentimiz I.Karimov

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.123.

<sup>4</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: "Sharq" nashriyoti, 1999-y. –248 b. 14-bet

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so‘zlab: «... bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi, umuman maktablarda bolalar mustaqil fikrlashga o‘rgatiladimi, aminmanki, o‘rgatilmaydi.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasalar, berilgan ta‘lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir»<sup>5</sup> degan edi. Bu fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘quvchilarning yetuk mutaxassis bo‘lishlari, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rinlarini to‘pa bilishlari, ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan an‘analarni davom ettirishlari uchun ularda mustakil fikrlash salohiyatini tarkib toptirish va rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Zero, o‘quvchining mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yaratish, bu asosda o‘qituvchilarni zaruriy o‘quv-me‘yoriy xujjatlar, qo‘shimcha adabiyotlar, o‘qitishning zamonaviy uslublari, samarali pedagogik texnologiyalar bilan ta‘minlash bugungi kun pedagogika fani oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biridir.

Darhaqiqat, hozirgi paytda o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lmasdan turib o‘quvchining nafaqat o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga, balki mutaxassis sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ham qiynalishi tabiiydir.

Ta‘limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e‘tiborni qaratish ta‘lim samaradorligining past bo‘lishiga olib keladi. Fikrlash qobiliyati rivojlangan o‘quvchigina bilimlarni mustahkam o‘zlashtiradi. Shu sababli o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish juda muhim.

Birinchi Prezidentimiz aytganidek, «...mabodo o‘quvchi o‘qituvchiga e‘tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o‘qituvchi hukmron. U bolalardan faqat o‘zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Umuman, xato fikrlashdan haqiqat kutib bo‘lmasa-da, bu sa‘y-harakatda tafakkur shakllanishi oqibat natijadir». Demak, o‘quvchining mustaqil fikrlashidan qanoatlanilmasada yoki

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999-y. – 410 b. 5-bet.

noto'g'ri mushohada yuritilayotgan bo'lsa-da, o'quvchining shahdini bo'g'ib, uni boshqacha usulda mushohada qilishga majburlashning nafidan ko'ra zarari ko'proq. Darhaqiqat, «O'zbekiston umumta'lim maktabi konsepsiyasi» «o'quvchi xato qilishga haqli» deya ogohlantiradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgani kabi illatlar hosilasi sifatida mustaqil fikr yuritishning susayishi yorqin namoyon bo'la boshladi. Uzoq davom etgan mustamlakachilik oqibatida ruhiyatimizga me'yoridan ortiq itoatkorlik, mute'lik va jur'atsizlik kabi salbiy xislatlar singib qoldi. Bunday salbiy xislatlarning zarari fikrlash jarayonida ham kuzatiladi. Ta'lim jarayonida nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar ham bir qolipda ish olib boradi. O'quvchilar faqat darslik va o'qituvchi tomonidan dars jarayonida beriladigan ma'lumotlarga tayanib qoldilar. O'quvchilarga o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan talablar ularda mustaqil fikr yuritish ehtiyojini tug'dirmaydi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida tegishli soha bo'yicha davlat ta'lim standartlarida belgilangan minimal majburiy talablarga tayanish lozim. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish zaruriyati, qolaversa, mustaqillikni mustahkamlash ehtiyojini ko'zlab, xalq ruhiyatiga singib qolgan mute'lik, jur'atsizlik kabi illatlarni tugatish uchun ham lozimdir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov «Tafakkur» jurnali muxbiri bilan bo'lgan suhbatda bu haqda shunday degan edi: «Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi»<sup>6</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013-yil 6-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida boshlang'ich ta'lim haqida shunday fikrlarni bayon etadi: “Sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim-tarbiya va sportning o'rni va ta'sirini yanada kuchaytirishda bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi

---

<sup>6</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2000-y. – 352 b. 76-77 betlar.

eng asosiy davr – bu boshlang‘ich sinf davridir”, degan edilar<sup>7</sup>. Shu ma’ruzalarida 2014-yilning “Sog‘lom bola” yili deb e’lon qilinishini taklif qilindi. Bu bo‘yicha davlat dasturi ishlab chiqildi, davlat dasturida boshlang‘ich ta’lim-tarbiyasining sifat samardorligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi ko‘zda tutilgan va ayni muammoga bag‘ishlangan ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili pedagogika fani va amaliyotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish malakalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy ishlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilar mustaqil faoliyatini tashkil etish muammosi bir qancha tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

O‘quvchilar tafakkurini o‘stirish, o‘quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish va faollashtirish muammosi A.G‘ulomov, M.Haqberdiyev, T.Ziyodova, S.Yaminova, M.Saidov, B.Adizov, Ya.Raxmonov tadqiqotlarida atroflicha yoritib berilgan.

Q.Yo‘ldoshev tadqiqotida adabiyot darslarini pedagogik hamkorlik asosida tashkil etish yo‘llari ishlab chiqilgan.

M.Maxmutov, V.Okon, R.Ibragimovlar esa ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va shu asosda o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llarini tadqiq etishgan.

Mustaqil ishlar va uning o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatiga va tafakkuriga ta’siri jarayoni O.Roziqov, R.Mallayev, A.G‘ulomov, T.Niyozmetova, N.Sattorova, S.Matchonov, L.Mirdjalalova, Y.Raxmonovlar tomonidan tadqiq qilingan.

Ta’lim jarayonini o‘yinlar asosida tashkil etish muammosini R.Tolipova, J.Tolipova, A.Bobomurodova, F.Qodirovalar tadqiqotlarida ko‘rish mumkin.

A.Choriyev mustaqil fikrlash faoliyatini shaxs mustaqilligining asosiy komponenti sifatida falsafiy jihatdan tahlil qilgan.

---

<sup>7</sup> Маърифат газетаси. (2013 йил 7 декабр № 97-98 (8643) 6-бет)



Tafakkurning psixologik asoslarini E.G‘oziyev, V.Karimova, Z.Nishonovalar o‘z tadqiqotlarida ochib berganlar.

Ilmiy tadqiqot ishlari tahlilidan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish vositalari alohida-alohida tarzda tadqiq etilgan. Shu bilan birga, boshlang‘ich ta‘limni samaradorligini oshirish va barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuvning yaxlit tizimi ishlab chiqilmagan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz bitiruv malakaviy ish mavzusini **“Oila va ta‘lim muassasasi hamkorligi asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish texnologiyasi”** deb nomladik.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini o‘rganish va bunda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishning obyekti:** Oila va ta‘lim muassasasi hamkorligida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti:** Oila va ta‘lim muassasasi hamkorligi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish mazmuni, shakl, metod va usullari.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:**

- oila va ta‘lim muassasasi hamkorligining mazmunini o‘rganish;
- o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning mavjud holatini tahlil qilish;
- tahlil qilish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash;
- o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish texnologiyasi va uning didaktik ta‘minotini yaratish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning samarali tizimini ishlab chiqish va tajriba davomida isbotlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot metodlari:** nazariy tahlil, o'quv jarayonini pedagogik kuzatish, anketa, savol-javob, suhbat, so'rovnoma, test, matematik-statistik tahlil, pedagogik eksperiment va boshqalar.

**Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari.** "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Davlat ta'lim standartlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va asarlarida bayon etilgan mazkur mavzuga oid qarash hamda yondashuvlar; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, Xalq ta'limi vazirliklarining qarorlari, buyruqlari, boshlang'ich ta'lim va pedagogika fani konsepsiyalari; faylasuf, psixolog, pedagog va metodistlar e'tirof etgan shaxsning aqliy tafakkurini rivojlantirish haqidagi ruhshunoslik va falsafa qonuniyatlari, milliy istiqlol g'oyasi va pedagogik texnologiya muammolari.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi:** boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda quyidagilarga amal qilinsa:

- oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik ishlari samarali va izchil olib borilsa;
- har bir darsda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadigan didaktik o'yinlar, mashqlar va topshiriqlardan doimiy foydalanilsa;

- o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida bajariladigan mustaqil ishlar izchil va muntazam o'tkazib borilsa;

- bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyatlar yaratilsa, mazkur muammolarni o'quvchilarning o'zlari hal etishlari uchun imkon berilsa;

- o'qituvchi-o'quvchi munosabatida «subyekt-subyekt» munosabati o'rnatilsa, muvaffaqiyatga erishish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ish natijalarining nazariy ahamiyati:** tajriba-sinov ishi jarayonida olingan natijalar oilaning ijtimoiy-pedagogik vazifalari, oila va ta'lim muassasasining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishga oid nazariy ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ish natijalarining amaliy ahamiyati:** tajriba-sinov ishi davomida ishlab chiqilgan texnologiya o'qituvchilarning o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan amaliy faoliyatini tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ish tuzilmasi:** 2 ta bob, 6 ta paragraf, har bir bob bo'yicha xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## **I BOB. O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. O'quvchi-yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi kontsepsiyasining mohiyati**

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardanoq, har tomonlama uyg'un rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirish milliy tarbiyamizning bosh maqsadi sifatida belgilab olindi. Mazkur maqsadga erishishning uzviyligi, uzluksizligini ta'minlash maqsadida «Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi» tizimi yo'lga qo'yildi.

O'tgan davr mobaynida mazkur sohada amalga oshirilgan ishlar samarasi o'laroq, dunyo hamjamiyati tomonidan O'zbekiston an'anaviylik va zamonaviylikni o'zida uyg'unlashtira olgan, o'ziga xos milliy tarbiya tizimi yo'lga qo'yilgan insonparvar davlat sifatida tan olindi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, aniqrog'i, 1993-yilda hukumat tomonidan qabul qilingan «Oila, mahalla va maktab hamkorligi kontsepsiyasi» tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish, yoshlarni istiqloq g'oyalari sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum daturilamal xizmatini bajardi.

Mazkur kontsepsiyada oila, mahalla va maktabning o'zaro hamkorlik jarayonidagi vazifalari aniq belgilab berilgan. Ko'rsatilgan vazifalar bugungi kungacha boqichma-bosqich amalga oshirilib, o'zining samarali natijalarini berdi. Biroq bugungi kunda dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, integratsiya va globallashtirish jarayonlarining kuchayib borishi ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini mustahkamlashni talab etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasida qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlash va oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi. Yoki bo'lmasa, «insonni

intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni»<sup>8</sup> tarbiyalashni nazarda tutadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir. Ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi yosh avlodga o'zligimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish.

Jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtini yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash oila, maktab va mahalla hamkorligi kontsepsiyasining mohiyatini tashkil qiladi.

Amaliy tajriba hozirgi vaqtda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligida hal etilishi lozim bo'lgan quyidagi dolzarb muammolarni kun tartibiga qo'ymoqda:

- 1) yoshlarda g'oyaviy immunitetni yanada oshirish, ularni «ommaviy madaniyat»ning salbiy oqibatlaridan himoya qilish;
- 2) yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- 3) yoshlarda oilaviy hayotga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirish;
- 4) yoshlarda ma'naviy - axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish;
- 5) yoshlarni kasb – hunarga yo'naltirishga doir chora tadbirlar tizimini rivojlantirish;
- 6) yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlash;
- 7) yoshlarda tolerant xulq-atvor ko'nikmalarini, yaxlitlikda tolerantlik madaniyatini shakllantirish;
- 8) yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar tizimiga kiruvchi oila, mahalla, bilim olish, Vatanga muhabbat, yurt tinchligi kabi tushunchalar haqidagi bilimlarini yanada boyitish;

---

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. 1997-y. 29-avgust – B.12.

9) yoshlarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali «axborot madaniyati»ni tarkib toptirish;

10) yoshlarning pedagogik-psixologik bilimlarini boyitish, sog'lom turmush tarzini hamda oila va ta'lim muassasasi hamkorligi shakllarini samarali tashkil etish orqali sog'lom fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;

11) yoshlarni internet va kompyuter o'yinlariga tobelikdan himoyalash va boshqalar.

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, g'oyaviy va psixologik munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. Har bir millatning o'ziga xos xarakteri, har bir millat oilasining o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

O'zbek oilalarida ajdodlar tafakkuri va aql zakovati bilan yaratilgan ma'naviy meros alohida o'rin egallaydi. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinalarida saqlanayotgan minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sihalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Mana shular asosida yosh avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda esa oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik faoliyatini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Zero, oilada ma'naviy madaniyat oila a'zolarining harakatlari, voqelikni baholay olish salohiyati, axloqiy bilim va tajribalari, ulardan foydalana bilish qobiliyati, yaxshi-yomon, ijobiy-salbiy vaziyatlarni farqlash va hakozi omillar bilan ham bog'liq.

Mazkur muammoni hal etishga doir oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligi quyidagi tizimga asoslangan holda amalga oshiriladi.

### **Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi shakllari**

a) asosiy bosqichlari:

- yosh oilalar bilan ishlash;
- maktabgacha ta'lim yoshi (3-6yosh)dagi bolalar bilan;
- kichik maktab yoshi (6-11yosh)dagi bolalar bilan;

- o'smir yosh (11-16 yosh)dagi bolalar bilan;
- yoshlar (16 yosh va undan yuqori yosh) bilan ishlash.

b) asosiy ish shakllari:

- individual;
- guruhli, kichik guruhlarda;
- ommaviy.

s) hamkorlikni tashkil etishda asosiy yetakchi tamoyillar:

- maqsadga yo'naltirilganlik;
- o'zaro birgalikdagi faoliyat;
- jarayonga yaxlit, majmuaviy va texnologik yondashuv;
- uzviylik va uzluksizlik;
- nazariyaning amaliyot bilan birligi;
- individuallik, ko'rgazmalilik;
- ijodiylik, faolik.

d) oila va ta'lim muassasasining asosiy hamkorlik yo'nalishlari:

- yoshlarda g'oyaviy immunitetni yanada oshirish;
- «ommaviy madaniyat»ning salbiy oqibatlaridan himoya qilish;
- yoshlarda sog'lom turmush tarziga oid bilimlarni shakllantirish;
- yoshlarda oilaviy hayotga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirish;
- o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishga doir chora-tadbirlar tizimini rivojlantirish;

- o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlash;

- yoshlarda tolerant xulq-atvor ko'nikmalarini, yaxlitlikda tolerantlik madaniyatini shakllantirish;

- yoshlarning pedagogik-psixologik bilimlarini boyitish, sog'lom turmush tarzini hamda oila va ta'lim muassasasi hamkorligi shakllarini samarali tashkil etish orqali sog'lom fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;

- yoshlarni internet va kompyuter o'yinlariga tobelikdan himoyalash.

e) ustivor vazifalar:

1. «Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi»ga doir yangi kontsepsiyasini ishlab chiqish.

2. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini rivojlantirishga doir amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

3. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini rivojlantirishda davlat va nodavlat, notijorat tashkilotlarning rolini oshirish.

f) kutiladigan natija:

Ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya sohasi bilan bog'liq muammolarni hal etishda «Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi»ga erishiladi.

Yuqoridagi tizimning asosiy tarkibiy qismlaridan biri jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablar asosida har tomonlama barkamol va sog'lom tafakkurli insonni shakllantirishda oila va ta'lim muassasalari hamkorligini amalga oshirishda bosqichlari va ularning har birida bajariladigan vazifalarni aniq belgilab olishdan iborat.

#### **Oila va ta'lim muassasalari hamkorligining bosqichlari va vazifalari:**

1. Yosh oilalar bilan ishlash:

- yosh oilalarni ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- oilada sog'lom muhitning qaror topishiga erishish.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash: maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda milliy qadriyatlar asosida ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarni tarkib toptirishga erishish.

3. Kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlash: Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash.

4. O'smir yoshidagi bolalar bilan ishlash: o'smir yoshidagi bolalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, mustaqil fikrlash hamda yuksak burch va ma'suliyatni qaror toptirish.

5. Yoshlar bilan ishlash: yoshlarning kasbiy shakllanishlari, mustaqil oilaviy hayotga tayyotgarliklarini ta'minlash hamda ularda fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirish.



Kontsepsiyada oilaga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekistonda 1998-yil «Oila yili», 2014-yil «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytiradi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-martda qabul qilingan «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi<sup>9</sup>.

Shuningdek, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 30-moddasida «Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar»<sup>10</sup> - deb belgilab qo'yilgan bo'lsa, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 3.2-bandida esa ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan.

Bu oila, maktab va mahalla hamkorligi bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish «Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi» konsepsiyasining asosiy maqsadidir.

---

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 130-sonli Qarori. 1998yil 26 mart.

<sup>10</sup> Qarang: Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2013. – B.6-29.

## **1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish malakalarini, mustaqil ravishda muammolarni hal qila bilish ko'nikmasini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Modomiki, shunday ekan, ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki o'quvchilar bilim olish bilan birgalikda, ta'lim jarayonining obykti bo'lib qolmasdan, ta'lim jarayonida o'qituvchining teng hamkoriga aylansin va mustaqil fikrlay olish malakasini ham egallab borsin.

Hayot jumboqlarini, tabiat tug'dirgan muammolarni o'rganish, ularga tegishli javob topish istagi, yana ham to'g'rirog'i, baxt-saodatga erishish muammosi, insonning o'zini va olamni bilishga bo'lgan qiziqishi asrlar mobaynida fikrlashga, o'z fikrlarini mantiqiy asoslashga da'vat qilib keladi. Sharq allomalari asarlarida bu muammoga alohida to'xtalib o'tilgani bejiz emas. Zero, mustaqil, ongli faoliyat yuritadigan insongina o'z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta'sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug' nomga munosib ish ko'radi. Sharq va G'arb olimlari bu muammoni o'zlari yashab o'tgan davr ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda yechishga harakat qilganlar.

Inson tafakkurining beqiyos kengliklari xususida «Qur'oni Karim» va «Avesto»da diniy asosda talqin qilingan bo'lsa, o'rta asrlarda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi qomusiy olimlar ilmiy-badiiy usulda talqin qilganlar. So'nggi davrlarga mansub olimlarning asarlarida esa ilmiylik uslubi ustunlik qiladi.

Muammoning ildiziga teranroq nazar tashlash uchun, avvalo, «mustaqil», «mustaqillik» so'zlarining lug'aviy ma'nosiga to'xtab o'tish joiz. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «mustaqil» so'zi - «ixtiyori o'zida bo'lgan, tobe, qaram bo'lmagan» degan ma'noni anglatishi yozilgan. Shunga ko'ra mustaqil fikrni

birovga tobe bo‘lmagan, hech qanaqa yot fikrlarga, o‘zgarar fikriga qaram bo‘lmagan holdagi ong mahsuli deyish mumkin<sup>11</sup>.

Mustaqil mushohada yuritish inson hayoti va faoliyatida muhim omil ekanligini Roziy Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyning «Kitob tib ar-Ruhoniy» asarida ham uchratish mumkin. U mustaqil fikrlay olish qobiliyati va uning hayotiy mohiyati xususida shunday deb yozadi: «Nafaqat o‘qish, balki o‘qiganini muhokama qila olish, o‘qiganini ba’zi hollarda tatbiq qila olish qobiliyatigina tabibni tabib qiladi».

Roziy asarlarida inson bilan hayvon o‘rtasidagi farq ham fikrlash uchun berilgan aqlda ekanligi haqida fikr yuritiladi: «... Bizga foydali bo‘lgan ishlarda o‘zimiz hukm yurita olishimiz uchun bizga hayvonlarga nisbatan ustunlik aql bilan berilgandir».

Xuddi shunday dunyoqarash Yaqin va O‘rta Sharqdagi ilg‘or pedagogik ta’limotning asoschisi Abu Nasr Forobiy asarlarida ham mavjuddir. U bilim o‘zlashtirish jarayoni haqida shunday deydi: «Inson bilimlarni aql va sezish organlari orqali qo‘lga kiritadi ... seziluvchi obrazlar his etish orqali, aqliy obrazlar esa seziluvchi obrazlar orqali bilinadi<sup>12</sup>».

Forobiy asarlarida didaktika masalalari, ta’limning nazariy muammolari, bilimlarni egallash va fikrlashning falsafiy, fiziologik va psixologik asoslari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. U obyekt va subyektning o‘zaro aloqasi, shaxsda kechuvchi murakkab fiziologik-psixik jarayonlar va shaxsning boy ma’naviy olamiga kata e’tibor qaratadi. Jumladan, olimning fikricha, inson ma’naviyatining oliy pog‘onasi ruh, aql va tafakkur bo‘lib, ular insonning bilish faoliyatiga xos bo‘lgan o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. Forobiy insonni mavjudotning eng buyuk va yetuk mahsuli deb ataydi. U o‘zining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama o‘rganish qobiliyatiga egadir. Inson aqli yordamida butun mavjudotning mohiyatini tushunadi. «Aql, - deydi u, - jismlarni bunday xislatlardan xoli holda tekshirganda u faqat jismlarning mohiyati nimadan iborat

---

<sup>11</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – M.: 2006-y. 2-tom, 652-bet.

<sup>12</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y. – 224 b. 185-bet

ekanligini va sezgilardan nimalar mavhumlashtirganini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Jismni u bilan bog‘liq bo‘lgan belgilardan ajratib oluvchi aql faoliyati shu jismning faqat mohiyatini tekshirish uchun amalga oshiriladi» .

Forobiyning fikricha, insonning tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, urf-odatlari, ma’lumoti tashqi muhit, boshqalar bilan muloqotda vujudga keladi. Insonning aqli, fikri ruhiy yuksalishning eng yetuk mahsuli bo‘ladi. Forobiy «Aql to‘g‘risida»gi risolasida axloqli kishining «o‘n ikki tug‘ma xislati»ni ta’riflar ekan, insonning fikrlash xususiyatiga alohida ahamiyat beradi. Uning fikricha, aql-zakovatli inson barcha masala yuzasidan o‘tkaziladigan muhokama va mulohazani tez va to‘g‘ri tushunadigan, uning ma’nosini anglab so‘zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan, xotirasi juda baquvvat bo‘lib, ko‘rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan, zehni biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani anglatishini tezda bilib oladigan, fikri va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon bayon eta oladigan, bilimlarni osonlik bilan o‘zlashtira oladigan bo‘lishini alohida ta’kidlaydi<sup>13</sup>.

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino nafaqat tibbiyot olamidagi kashfiyotlari bilan, balki ta’lim va tarbiya sohasidagi asarlari bilan ham milliy pedagogika tarixida muhim o‘rin tutadi. U «Tadbiri manozil» («Bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash») asarida o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini yaxshilash, bilim berish jarayonining samaradorligini oshirishda o‘quvchilarni birga o‘qitish zarurligiga diqqat qaratadi. Bunda o‘quvchi zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Shu asosda o‘quvchilar o‘qigan kitoblari, fikr-mulohazalari, kattalardan eshitgan fikrlari bilan o‘rtoqlashadilar va ana shu jarayonda ularning fikrlash darajasi shakllana boradi.

---

<sup>13</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y. – 224 b. 185-bet

Ibn Sino suhbatdoshiga hurmat bilan yondashish haqida to‘xtalib, shunday deydi: «Sening fikring (bolaning) yuragiga yetib borib, unga o‘ylab, fikr yuritib ko‘rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do‘sting sening so‘zlaringga va nasihatlaringga e’tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko‘chir»<sup>14</sup>.

Ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatiga, xayol-xotirasi va iroda sifatlariga yuqori baho beradi. Tafakkurning kuchi shundaki, uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga chog‘ishtirib, abstraksiyalash bilan haqiqatni yolg‘ondan ajratish mumkin, xotira yordamida esa idrok qilingan narsa va hodisalar kishi ongida mustahkam saqlanib qoladi va idrok qilingan bir obyektini ikkinchisidan ajratishga yordam beradi. Xayol kishi ongida obyektiv voqelikning aks ettirilishidir, degan fikrlarni bayon qiladi.

Kaykovus ilmiy asarlar mutolaasidan olingan bilimlar nechog‘lik haq bo‘lmasin, hayotda o‘z fikriga tayanib mustaqil ish ko‘rish lozim bo‘lgan vaziyatlar ham bo‘lishi mumkinligini o‘g‘liga nasihat tarzidagi «Qobusnoma» asarida yozadi: «Ey farzand, bilgilki, barcha hukmni kitob bo‘yicha qilmasdan, o‘z fikrlari bilan ham hukm qilurlar va bunday tadbirlar bilan ham ishni bilib olurlar».

Buyuk qomusiy olim, faylasuf va pedagog Abu Rayhon Beruniy ham bilimlarning hosil bo‘lishida aql, fikr, sezgilarining o‘rni haqida so‘z yuritar ekan, shunday deb yozadi: «Faqat sezgi orqali, sezgi organlari yordamida o‘zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o‘rganishda juda katta yutuqlarga erishmog‘i mumkin... Istaklarga mehnat tufayli erishiladi». Olimning fikricha, faqat eshitilgan, ko‘rilgan yoki umuman sezgi organlari orqali qabul qilingan ma’lumotlar shundayligicha idrok qilinmasdan, balki aql chig‘irig‘idan o‘tkazilsa va tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo‘ladi.

---

<sup>14</sup> Ziyomhammadov B. Pedagogika. (Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma). – T.: “Turon-Iqbol”, 2006-y. – 112 b. 13-bet. 11-12 betlar.

Beruniyning ilmiy merosida tabiatni o‘rganish va bilishning ilmiy metodiga ham katta o‘rin ajratilgan. Beruniy ilmiy metodining xarakterli xususiyatlari obyektivlik va oqilona yondashuv, kuzatish, tajribalar, og‘zaki va yozma yodgorliklarni o‘rganish, dalillarga tanqidiy yondashuv, ularni aqliy xulosalar shaklida mantiqiy umumlashtirish va haqiqatni aniqlash maqsadida qiyoslashdan iboratdir.

Buyuk olim ta’limning izchil, ko‘rgazmali, maqsadga qaratilgan bo‘lishi va muayyan tizim bo‘yicha olib borilishi zarurligini, ko‘rgazmalilik ta’limni ancha qulay, aniq va qiziqarli qilishi va tafakkurni rivojlantirishini alohida ta’kidlaydi.

G‘azal mulkining sultoni, ma’rifatparvar davlat arbobi Alisher Navoiy asarlarida ham insonning o‘z fikri, dunyoqarashiga ega bo‘lishi, bilim olishi va olgan bilimlarini hayotda qo‘llay bilishda inson tafakkurining o‘rni kata ekanligiga alohida ahamiyat beriladi. Shoir «Mahbub-ul-qulub» asarida bilim olib mustaqil mushohada yurita olmaydigan insonni «ustiga kitob ortilgan eshak»ka qiyoslaydi va «nodon» deb ataydi<sup>15</sup>.

Ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida badan tarbiyasi bilan bir qatorda fikr tarbiyasiga ham alohida ahamiyat beradi. Uning ta’kidlashicha, fikr tarbiyasi «muallimning yordamiga so‘ng darajada muhtojdir» va inson hayotida muhim ahamiyatga ega.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,

Xanjar olmosdan bo‘lur o‘tkur.

Fikrning oynasi olursa zang,

Ruhi ravshan zamir o‘lur benur

XX asrning so‘nggi o‘n yili o‘zbek xalqi ijtimoiy hayotida, ongida tub burilishlar davri bo‘ldi. Qisqagina vaqtda millatning olamni, voqelikni anglash, idrok etish va tushuntirish tarzida jiddiy sifat o‘zgarishlari yuz berdi. Bu o‘zbek xalqining o‘zligiga qaytganligi, millat tafakkurining sog‘lomlashganligini ko‘rsatadi.

---

<sup>15</sup> Зуннунов А. Педагогика тарихи. Олий ўқув юрти учун дарслик. – Тошкент: Шарк, 2000.

Ana shu ijobiy o'zgarishlar milliy pedagogikamizda ham o'z aksini topdi. Endilikda milliy pedagogikamizning maqsadi bilim berish va mutaxassis tayyorlash asosiy niyati bo'lgan mustabid tuzum pedagogikasidan farqli o'laroq, barkamol shaxs tarbiyasiga qaratilgan. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilarga kishilarning demokratik jamiyatda erkin va mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalanishi lozimligini ko'rsatib o'tdi.

Pedagogika fanlari doktori Q.Yo'ldoshev esa milliy tarbiyashunoslikda samara keltiruvchi faoliyat bu - pedagogik hamkorlik, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati, deb ko'rsatadi. «Endilikda pedagogika fanining asosiy e'tibori tarbiyalanuvchini faollashtirishga, uni pedagogik jarayonning ishtirokchisiga, tarbiyachining sherigi yoxud hamkoriga aylantirish yo'lini tadqiq etishga qaratilgan».

Yangilanayotgan pedagogika o'qituvchi o'quvchi oldida obro'ga ega bo'lishi lozimligini tan oladi. Ammo obro'ga zo'ravonlik, taqiq va tazyiq bilan erishib bo'lmaydi. Obro'ni qozonish kerak.

Yevropa pedagog va psixologlari o'rtasida ham «mustaqil fikrlash» tushunchasi juda ko'p tortishuvlarga sabab bo'lgan muammolardan biridir. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish deyiladi.

Demokratik pedagogikaning asoschisi, mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ilg'or fikrlari bilan zamonasining sxolastikaga asoslangan o'qitishning dogmatik usuliga qarshi chiqib, insonning hissiy bilishdan aqliy bilishga borishigacha bo'lgan yo'ldagi ma'rifatning o'rnini ilmiy asoslab berdi.

Ulug' olim o'zining «Buyuk didaktika» asarida insonning bilim olish uchun uning butun yoshlik davri, 24 yoshgacha bo'lgan umri sarflanadi, deydi. Shu davrni to'rt qismga ajratib, har bir davr o'ziga mos maktab bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. «Avvalo, -deydi u,- tashqi sezgilar vositasi bilan narsalarning o'zlari bilib olinadi, chunki narsalar bevosita sezgilarga ta'sir etadi. So'ngra, o'z

navbatida, ichki sezgilar harakatga kelib, tashqi sezgilar yordamida bilib olingan narsalarning in'ikosini o'zida aks ettiradi, mujassamlashtiradi va xotira yordamida, shuningdek, qo'l harakatlari va nutq yordamida ifodalaydi. Shundan so'ng aql ishga kirishadi va batafsil fikr yuritib, hamma buyumlarning o'zaro munosabatlarini puxta o'rganish uchun ularning barchasini o'lchab, taqqoslab ko'radi. Bu esa narsalarni va ular haqidagi fikrlarni to'g'ri tushunib olishga imkon beradi. Nihoyat bularning barchasida iroda o'zining qonuniy kuchini ko'rsatishi lozim. Chunki iroda insonning barcha harakatlarini birlashtiradi va boshqaradi»<sup>16</sup>.

Demak, olim sezgilardan boshlanadigan bilish bosqichlarini ko'rsatib berar ekan, aqlning mustaqil fikrlashni yo'lga qo'yishini va shuning natijasidagina to'g'ri fikrlarning tushunib olinishini ko'rsatib beradi.

Falsafa fanlari doktori A.Choriyev «mustaqil shaxs» tushunchasini falsafiy jihatdan tahlil qilar ekan, u o'zida uchta komponentni: mustaqil fikrlashni, mustaqil ishlashni, mustaqil yashashni o'zida mujassamlashtirishini ta'kidlab o'tadi va mustaqil fikrlashni asosiy komponent sifatida inson faoliyatiga ta'siri haqida shunday deydi: « ... shaxs mustaqilligi, eng avvalo, uning fikrlash tarziga, fikr-mulohaza yuritish quvvatiga bog'liq bo'ladi. Xuddi shu qobiliyat tufayli inson o'zi ko'rgan, bilgan, eshitgan, atrofida sodir bo'layotgan hodisalar, voqealar, jarayonlarning mohiyatini, ularning to'g'ri yoki noto'g'ri, chin yoki yolg'onligini aniqlaydi. Aniqroq qilib aytganimizda, inson xuddi shu qobiliyati tufayli kundalik turmushimizda vujudga kelgan muammolar yechimini topadi».

Kuzatishlarga qaraganda, mustaqil fikrlash, avvalambor, yangi savol, yangi muammoni ko'ra bilish va qo'ya bilish, so'ngra uni o'z kuchi bilan hal qilishda namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, mustaqil fikrlash o'quvchilarning shunday faoliyatiki, unda o'quvchilar maksimal faollik, ijodkorlik, mustaqil hukm chiqarish va tashabbuskorlikni namoyon qiladilar. Natijada ular shu jarayonda:

- bilimlarni mustaqil ravishda yangi vaziyatda qo'llash;
- mavzularni o'rganish davomida yangi muammoni ko'ra bilish;

---

<sup>16</sup> Ochilov M. Muallim – qalb me'mori. Saylanma. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 2001-y. – 432 b. 290-bet



- bir muammoning bir nechta (alternativ) yechimlari bo'lishi mumkinligini anglash;

- avval ma'lum bo'lgan muammolarni hal qilish usullarini kombinatsiyalash;

- muammoni hal qilishning original usullarini topa bilish malakalarini egallay boradilar.

Yuqorida sanab o'tilgan va boshqa shu kabi ishlarni bajarish davomida o'quvchi faoliyatida ongli mustaqillik darajasi quyidagilarda namoyon bo'ladi: bilish, fikrlash, eslab qolish yoki ma'lum tushunchalar asosida yangi faktlar, hodisalar, voqealarni keltirish.

Ish mazmuniga ko'ra o'xshash topshiriqlarni bajarishdagi o'quvchi harakatlari mustaqil bo'lmaydi, chunki ular namuna asosida bajariladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi faoliyati ham elementar darajada bo'ladi. Negaki u oddiy qayta ishlash ko'rinishida tayanch tushunchalar asosidagi harakatlari fikrlash tarziga kam ta'sir o'tkazadi.

Tafakkurning yetarli darajada rivojlanmasligi, M.Saidov ta'kidlaganidek, «o'quvchi faoliyatida tez-tez duch keladigan so'z qashshoqligi, fikrni mantiqan bayon qila olmaslik, fikrni mustaqil izchillikda bera olmaslik, bayon qilinishi lozim bo'lgan fikrlarni mantiqiy bo'laklarga ajrata olmaslik, mavzu talabidan chetga chiqishi» ga olib keladi. Bu esa masalaning g'oyatda muhimligini ko'rsatadi.

Z.Nishonova esa mustaqil fikr rivojlanganligining mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

1. O'zining va «o'zgalarning» fikrini tanqidiy baholashda shaxsning tajribasi, o'zga shaxsning fikrini tushunish qobiliyati, uning fikridagi mantiqni tushunish, suhbatdoshning fikrlarini o'z fikrlari bilan taqqoslay olish va ma'lum xulosaga kelish;

2. Shaxsning fikr mazmuni bilan tashqi va ichki kelishuv;

3. Qarama-qarshiliklarni his qila olish;

4. Tafakkurda nazariy va amaliy umumlashtirishning nisbati;

5. Diqqatda namoyon bo'ladigan aqliy funksiyalarning ixtiyoriy boshqarilishi;

6. Aqliy tashabbuskorlikning rivojlanish darajasi.

Psixologiya fanlari doktori E.G'oziev va pedagogika fanlari doktori J.Ikromovalar mustaqil fikrlash jarayoni va uning komillikka ta'sirini tahlil qilar ekanlar, mustaqil fikr yuritish harakatini quyidagi bosqichlardan tashkil topishi mumkinligini ta'kidlab o'tadilar:

1. Muammoning paydo bo'lishi.
2. Masala, muammo, topshiriq mohiyatini anglash.
3. O'xshash ma'lumotlar yoki obrazlarning vujudga kelishi.
4. Tasavvur va xotira materiallarining kamayishi, taxminlar (farazlar)ning tug'ilishi.
5. Taxminlarni tekshirish yoki ularning haqqoniyligini tasdiqlash.
6. Yangi taxmin (faraz)ning yuzaga kelishi.
7. Farazlarni ikkilamchi tekshirish.
8. Masala, topshiriq, muammo yechimini topish (hal qilish).
9. Ixtiyorsiz aqliy hatti-harakatlar davom etishi (fikrlashning nisbiy davomiyligi) va hokazo.

O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi shaxs tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning zarur shartlaridan biridir. Inson o'z xatti-harakatlari, faoliyati davomida qay darajada mustaqil fikrli bo'lsa, shu qadar tushunchasi keng, aql-idroki yuksak hisoblanadi. Fikr nutq orqali ifoda etilishi nazarda tutilsa, ona tili ta'limi oldida nechog'li mas'uliyatli vazifani hal qilish masalasi turganini anglash qiyin emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mezonlari sifatida biz quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- 1) o'rganilayotgan materialni mustaqil tahlil qila bilish;
- 2) muammoni hal eta bilish;
- 3) hodisa va jarayonlardagi belgilarni taqqoslash, umumlashtirish, umumlashma xulosalar chiqarish;

- 4) o'z fikri va tushunchasini mantiqiy dalillash, fikrlarni ravon ifodalash;
- 5) o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llay bilish.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish jamiyat hayotida tub burilishlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda, ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Negaki mamlakatimizda yuksak e'tiqodli, mustaqil fikrli, tashabbuskor, yuqori malakali mutaxassislarga har qachongidan ham katta ehtiyoj bor.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirishda o'quv fanlarining o'rni beqiyos kattadir. Bu borada, ayniqsa, ona tili ta'limi zimmasiga katta mas'uliyat tushadi. O'quvchilarni fikrlash qobiliyatini rivojlantirish iqtidoriga ega bo'lishi ularning o'quv-biluv ko'nikma va malakalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilab qo'yilgan ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish talabiga to'la mos keladi.

O'quvchilar bilish faoliyatini shakllantirishga bag'ishlangan adabiyotlarning nazariy tahlili va pedagog olimlarning qarashlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash faoliyati mohiyatini tushunishda hozircha yakdillik yo'qligini ko'rsatmoqda.

O'quvchilarning mustaqil faoliyati ijodning turli darajasi bilan kechishi mumkin. Ammo o'quvchilarning har qanaqa mustaqil faoliyati, albatta, o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi: sharoit yaratiladi, ko'rsatmalar beriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslariga oid izlanishlar davomida o'quvchilarning fikrlash faoliyatida individual va tipik xususiyatlari mujassamlashadi, degan xulosaga keldik. Voqea va hodisalar inson ongida aks etar ekan, inson idrok qilgan va xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyat kasb etadi. Aks holda u eslab qololmaydi. Shunga ko'ra insonning dunyoni anglashi, tushunishi, unga ongli munosabatda bo'lish kabi bilish jarayonini tafakkur yuritish, fikrlash jarayoni deyish mumkin. Fikrlash jarayonining psixologik asoslarini psixolog V.Karimova tahlil qilgan. U: fikrlash

inson miyasi faoliyatidir, – deb ko‘rsatadi va fikriy operatsiyalarni quyidagicha tahlil qiladi: “Eng elementar harakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab muammolarni hal etishga qaratilgan operatsiyalar ham hammasi miyada sodir bo‘ladi. Miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati o‘zaro uzviy bog‘liq.

Har bir insonni fikrsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Har on, har daqiqada inson miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo‘ladi. Ularni tartibga solish, keragiga qaratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni yechish - fikrlash jarayonidir”<sup>17</sup>.

Fikrlash jarayoni idrokdan farq qilib, narsalar va ularning xossalarini ular yo‘q paytda ham aks ettirishga imkon beradi. Fikr yuritish jarayoni ma’lum bir masala, muammo, jumboqni hal qilish kerak bo‘lganda yuzaga keladi. Fikrlash jarayonida doimo bir narsa xususida kamida bitta yechimni berish shart, aks holda u boshqa jarayonga - xayolga aylanib ketishi mumkin. Biror muammo xususida miyada paydo bo‘lgan fikr yoki g‘oyada aniqlik yetishmagan paytlarda odam xayolga cho‘madi. Xayol yangi obrazlar va taxminlarning shakllanish jarayoni bo‘lsa, unga yaqin bo‘lgan yana bir tushuncha fantaziya - xayolning borliqdan, haqiqatdan bir oz uzoqlashuvi jarayonidir. Muammo va jumboqlar bizni fikrlashga majbur etadi. Ammo fikrlash fantaziyaga o‘tib ketmasligi uchun fikrlashga majbur etadigan aniq ma’lumotlar berish lozim bo‘ladi.

Tafakkur yoki fikrlashning quyidagi shakllari yoki mahsuli mavjuddir:

*Tushuncha* - tafakkurning shunday shakli yoki mahsuliki, u narsa va hodisalarga xos bo‘lgan eng umumiy va xarakterli xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Ular umumiy va juz’iy, konkret yoki mavhum bo‘lishi mumkin.

*Hukm* - atrofda narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi. Hukmlar bizning nutqimizda har kuni juda ko‘p ishlatiladi va ular tabiatan turli bog‘liqliklarni tasdiqlaydi yoki inkor qiladi, rost yoki yolg‘on bo‘ladi. Shaxsning insoniyligi aslida u ishlatadigan iboralarning qanchalik mantiqqa, hayotiy haqiqatlarga to‘g‘ri kelishi, asoslanganligi, dalillanganligi bilan baholanadi.

---

<sup>17</sup> Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: “Знание”, 1989 г. С. 75.

*Xulosalar* - mantiqiy tafakkurning yana bir shakli, mahsuli bo'lib, ular fikrlar, hukmlar va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlardan yangi fikrlarni keltirib chiqarishni nazarda tutadi.

Tahlil qilish, mavhumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish kabi operatsiyalar fikrlash jarayonini ta'minlaydi. Quyida ularning har biri ustida chuqurroq to'xtalib o'tamiz.

*Tahlil qilish* - bu muammoni fikran qismlarga ajratib o'rganishdir.

*Umumlashtirish* - alohida qismlarni yoki elementlarni fikran bir butunga birlashtirishdir.

Ta'lim bosqichlarining murakkablashib borishi bilan o'quvchilarda tahliliy umumlashtirish darajasining oshishi kuzatiladi. Tahlil qilish sekin-asta ko'rgazmali-amaliylikdan (obyektlarni fikran bilish, mazkur obyektlar bilan amaliy harakatlar jarayonida amalga oshirilayotganda) ko'rgazmali (bilish obrazlar yordamida amalga oshirilayotganda) va mantiqiy yakunga (bilish mavhum tushuncha va mulohazalar shaklida amalga oshirilganda) tomon rivojlanadi.

*Taqqoslash* - o'xshashliklar va tafovutlarni topish maqsadida bilish obyektlarini qiyoslash demakdir. Bu operatsiya boshqa barcha asosiy fikriy operatsiyalar asosida yotadi.

*Mavhumlashtirish* - bilish obyektidan bir xususiyatni ajratib olib, boshqasini chiqarib tashlashdan iborat fikriy operatsiyadir. Bu xususiyatlar o'rganilayotgan predmet va hodisalarning «ichiga» kirishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinflardan o'quvchilarning mavhumlashtirish qobiliyati namoyon bo'ladi. O'qituvchi rahbarligida ta'lim jarayonida bu qobiliyat rivojlanadi, mavhumlashtirish shakli ham murakkablashadi – hissiy ko'rgazmalilikdan fikr yuritishga o'tiladi hamda tushunchaga aylanadi.

*Aniqlashtirish* - mavhumlashtirishga yaqin fikriy operatsiya bo'lib, u umumiydan xususiya o'tish, natijada uning turli xususiyat va belgilarini topish orqali aniqlash sifatida namoyon bo'ladi. Muammoni o'rganishda mavhumiylik va aniqlashtirish birligi o'rnatiladi. Bu birlik o'zaro aloqaga fiziologik asos - ikkinchi

signal tizimiga ega. Bilimni chinakam egallashga mavhum tushunchalar, dalillar aniqlashtirilgandagina erishiladi.

Boshlang'ich sinf ta'limi jarayonida fikrlash qobiliyatini aniqlashtirish ikki shaklda amalga oshiriladi:

- 1) hissiy - ko'rgazmali vositalar (matnlar, rasmlar, jadvallar) yordamida;
- 2) so'z orqali - mavhum shaklda (hikoya qilish, tushuntirish, maxsus topshiriqlarni hal etish).

Mustaqil fikrlash esa shaxsning shunday fikrlash qobiliyatiki, bunday fikrlash jarayonida inson narsa va hodisalar xususida o'z qarashlariga ega bo'ladi. Fikrlash faoliyatiga aniqroq ta'rif beradigan bo'lsak. F i k r l a s h - bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatining birligi natijasi o'laroq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi fikriy operatsiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir<sup>18</sup>.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, fikrlash muammosi kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. U asrlar davomida ilm ahlining diqqat markazida, turli bahs-munozaralarga sabab bo'lgan falsafiy, psixologik va pedagogik muammodir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda o'quv fanlari katta imkoniyatlarga ega. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilarning fikrlash darajalarini bir qancha tadqiqot usullari yordamida aniqlashga harakat qildik. O'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning mavjud holatini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishi natijalarini keyingi badda bayon qilamiz.

---

<sup>18</sup> Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2003y.

### **1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning mavjud holati**

Ma'lumki, bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish malakalarini shakllantirishning ilg'or usullarini o'rganish, unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, hamkorlikda o'qitish jarayoni mohiyatini o'rganish, muammoga doir tajriba sinov natijalarini amaliyotga tavsiya qilishdir. Ilmiy-pedagogik tajribalar orqali chiqarilgan xulosalar, ilgari surilgan g'oyalar, metodik tavsiyalar, ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan tizimning samaradorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish darajalarini aniqlash maqsadida ilmiy izlanish usulidan foydalanildi. Bunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflardan nazorat sinflari va tajriba sinflarida ona tili darslari misolida kuzatildi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari bilan suhbatlar uyushtirildi, anketa so'rovlari va o'yin-topishmoqlar asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini aniqlashga harakat qilindi.

Tajriba sinov ishlari Jarqo'rg'on tumanidagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazildi. Tajriba davomida jami 20 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari, 113 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Shulardan 54 nafari 2-sinf, 59 nafari 3-sinf o'quvchilaridir.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida suhbat, savol-javob, kuzatish, tajriba, anketa so'rovlari kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. 2-3-sinflarda 2017-2018-o'quv yilining mart oyidan boshlab kuzatish ishlari olib borildi.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaysi davrdan boshlab o'rgatish mumkinligi to'g'risida tarqatilgan anketa so'rovnomasiga (1-ilova) quyidagicha javoblar olindi:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab - 5 kishi;
2. Kichik maktab yoshi davridan boshlab -7 kishi;
3. Yuqori sinflardan boshlab -8 kishi.

Ko‘rinib turibdiki, ko‘pgina o‘qituvchilar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini asosan yuqori sinflardan boshlanadi, deb hisoblaydilar. Tabiiyki, bu mustaqil fikrlash jarayoniga salbiy ta‘sir o‘tkazadi.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda qo‘llaniladigan eng samarali usullari borasidagi savolga o‘qituvchilar javoblari quyidagicha bo‘ldi:

Muammoli izlanish usuli – 8 nafar;

Mustaqil ishlar – 7 nafar;

Didaktik o‘yinlar – 5 nafar;

O‘qituvchi va o‘quvchining erkin muloqoti – 10 ta;

Shuningdek, 6 nafar o‘qituvchi yuqoridagi usullarning barchasidan foydalanish lozimligini, 4 nafar o‘qituvchi esa ta‘limning og‘zaki metodlaridan ham foydalanish lozimligini ko‘rsatganlar.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish jarayoni unumli kechishi uchun tegishli sharoit yaratish lozimligini ko‘pchilik (18 nafar) o‘qituvchi ta‘kidlab o‘tdilar. Ammo mustaqil ishlarga rahbarlik qilish borasidagi savolga 15 nafar o‘qituvchi ko‘rsatmalar berib turishini aytdi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘qituvchilar bilan muloqot jarayonida tortinib turishini (16 nafar) va o‘quvchilarining har bir harakatini qattiqqo‘llik bilan nazorat qilishlarini (17 nafar) o‘qituvchilar aytib o‘tdilar. Bu javoblardan ko‘rinib turibdiki, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi uchun to‘sqinlik qiladi.

O‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan anketa so‘rovlari natijasi tahlili ona tili ta‘limi jarayonida mustaqil fikrlashga o‘rgatish tizimi ishlab chiqilmaganligi o‘quvchilar tafakkuriga salbiy ta‘sir etayotganini ko‘rsatdi.

O‘qituvchilar fikrlashga o‘rgatishda mustaqil ishlar, didaktik o‘yinlar va umuman ta‘lim metodlarining faqat ayrim ko‘rinishlaridangina nomiga foydalanadilar. Bu esa o‘quvchilar uchun ta‘lim jarayonining zerikarli bo‘lishi bilan birgalikda, ularning mustaqil fikrlashi uchun ham imkoniyat yaratmaydi.

Tajribaning birinchi bosqichida kuzatgan darslarimizning 8 tasi an‘anaviy darslar bo‘lib, ularda suhbat, hikoya, savol-javob kabi metodlardangina foydalanildi. 10 soat kuzatilgan darsda didaktik o‘yinlarning bir nechta



ko‘rinishlariga murojaat qilindi, xolos. 7 soatlik dars davomida esa mustaqil ishlarning tarqatma materiallar va test topshiriqlari kabi ko‘rinishlaridan foydalanildi.

O‘qituvchilarning metodik jihatdan yaxshi tayyor emasligi va o‘tilayotgan darslaridagi bir xillik o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Bunga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash darajalarini aniqlash jarayonida guvoh bo‘ldik.

2-3 sinf o‘quvchilarining mustaqil fikr yuritish darajalarini suhbat asosida, berilgan savollarga yozma javob berishi orqali aniqlashga harakat qildik. Buning uchun o‘quvchilarga tabiat hodisalari, “men yaxshi ko‘rgan fan”, “men yoqtirgan ertak qaxramonlari”, “Sog‘lom bo‘lish uchun nima qilish kerak?” kabi mavzularda mustaqil ravishda hikoyalar tuzish vazifasi topshirildi. Sinovning dastlabki bosqichida o‘quvchilarning deyarli hammasi o‘qituvchidan yordam so‘rab murojaat qildilar. Kuzatish natijalari asosida o‘quvchilar fikrlashi quyidagicha 3 darajada baholandi:

***Yuqori daraja.*** Bunga o‘qituvchi bergan yo‘nalish asosida 9-10 ta gapdan iborat hikoya tuza oladigan o‘quvchilar kiritildi. Ularning hikoyalaridagi gaplar o‘zaro mantiqan bog‘lanishi va so‘zlarning o‘z o‘rnida ishlatilishiga alohida e‘tibor qaratildi (21 nafar o‘quvchi).

***O‘rta daraja.*** Bunga o‘qituvchi yordami asosida 4-5 ta gapdan iborat hikoya tuza oladigan o‘quvchilar kiritildi. Ular tuzgan gaplarda ba‘zi xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi hisobga olindi (40 nafar o‘quvchi).

***Quyi daraja.*** Bunga o‘qituvchining bevosita yordami asosida deyarli mantiqan bog‘lanmagan, gap tuzishda xatolarga yo‘l qo‘ygan o‘quvchilarning hikoyalari kiritildi (52 nafar o‘quvchi).

Birinchi bosqichda tajriba natijalari quyidagicha bo‘ldi:

## 2-3 sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash darajalari

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	“A”	“B”	“A”	“B”	“A”	“B”
2-sinf o'quvchilari (jami 54 nafar)	4	3	13	11	11	12
3-sinf o'quvchilari (jami 59 nafar)	6	4	13	14	10	12
Jami	10	7	26	25	21	24
Foiz hisobida	8.8 %	6.2 %	23.0 %	22.2 %	18.6 %	21.2 %

Biz natijalarni tahlil qilib, o'rta va qoniqarli ko'rsatkich olgan o'quvchilarning ishlarini ko'proq tahlil qildik. Sababi, quyi daraja ko'rsatgan o'quvchilarning ko'pchiligi o'z fikrlarini mustaqil bayon qilishda qandaydir qiyinchiliklarga duch kelishdi. Va buni aniqlash uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar bilan olib boriladigan individual ish shakllarini, maktabning o'quvchilarning ota-onalari bilan olib boriladigan hamkorlikdagi ishlarini o'rgandik. Shuningdek, bu jarayonda o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladigan bayram tadbirlari, ertaliklarni ham o'rganishga e'tibor qaratdik. Yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbatda shu narsa ayon bo'ldiki, oiladagi shaxslararo munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ota-ona va farzand o'rtasidagi erkin muloqot, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanganligi, ota-onalarning o'qituvchilar bilan o'z farzandlari haqida suhbatlar o'tkazib turishi o'quvchilarning fikrlash tarzida ijobiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Biz bu natijalar bilan, bolalar uyda yaxshi tarbiyalanmagan, demoqchi emasmiz. Uyda ota-onalar bola tarbiyasi bilan yaxshi shug'ullanadilar, ammo maktabga tayyorlash, ularning so'z boyliklarini oshirish yuzasidan maxsus tayyorgarlik ko'rilmasligidan ham ko'z yummaslik kerak. Oilada tarbiyalangan

bolalarning tabiat hodisalari va undagi o'zgarishlarga bo'lgan qiziqishlari to'la qondirilmasligi, mustaqil fikrlash uchun sharoit yaratilmasligi hech kimga sir emas.

Shundan so'ng, tajriba-sinov ishlari o'tkazilgan sinflarda topishmoqlar asosida o'tkaziladigan o'yin orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajalarini aniqlashga harakat qilindi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga javobi bir xil bo'lgan 3 ta topishmoq yoki ta'rif bilan murojaat qiladi. O'quvchilar javob varaqalariga «1-savol» deb yozadilar. Pastidan esa «1-javob», «2-javob», «3-javob» deb yozadilar va har bir topishmoq (ta'rif) o'qilgach, javoblarni javob varaqalariga qayd qiladilar. Birinchi topishmoq (ta'rif) xiyla murakkab, ikkinchi topishmoq (ta'rif) osonroq, uchinchi topishmoq (ta'rif) esa juda oson bo'ladi.

Fikrlash qobiliyati rivojlangan ziyrak o'quvchilar birinchi topishmoqdanoq to'g'ri javobni topa oladilar va natijada uchta javobning ham bir xilligiga iqror bo'ladilar. Bu me'yor ancha real natijalarni olishga imkon yaratish bilan birgalikda ball belgilashda ham qulayliklar tug'diradi. Ya'ni birinchi topishmoq (ta'rif)danoq to'g'ri javob topilsa 3 ball, ikkinchi topishmoq (ta'rif)dan to'g'ri javob topilsa 2 ball va nihoyat uchinchi urinishdagina to'g'ri javob topilsa 1 ball beriladi. Agar umuman to'g'ri javob topilmasa 0 ball.

Tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarga 10 ta topishmoq-savol bilan murojaat qilindi (5-ilova) va o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari uchta daraja bo'yicha aniqlandi:

Yuqori daraja: 21-30 ball to'plagan o'quvchilar.

O'rta daraja: 11-20 ball to'plagan o'quvchilar.

Quyi daraja: 10 va undan kam ball to'plagan o'quvchilar.

Bu me'yor asosida olingan natijalar quyidagicha bo'ldi:

1.3.2-jadval

O'yin-topishmoqlar asosida olingan natijalar

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	“A”	“B”	“A”	“B”	“A”	“B”

2-sinf o'quvchilari (jami 54 nafar)	7	5	12	13	9	11
Foiz hisobida	8.8 %	6.2 %	23.0 %	22.2 %	18.6 %	21.2 %
3-sinf o'quvchilari (jami 59 nafar)	8	5	13	12	8	13
Foiz hisobida	8.8 %	6.2 %	23.0 %	22.2 %	18.6 %	21.2 %

O'tkazilgan tajriba natijalaridan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati talab darajasida emas. Buning sabablarini aniqlash maqsadida tajribaning dastlabki bosqichida 2-sinflarda 12 soatlik, 3-sinflarda 15 soatlik darslar kuzatildi. Mazkur darslarning barchasi an'anaviy turda bo'lib, savol-javob, mashq bajarish, suhbat, hikoya metodlaridan, tarqatma materiallardan foydalanildi. Lekin bu darslarda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga e'tibor qaratilmadi.

Kuzatilgan darslar jarayonida muammoli-izlanish metodiga murojaat qilinmadi. Hech bo'lmaganda o'quvchilar «Nima uchun?», «Siz nima deb o'ylaysiz?», «Sizning fikringiz qanday?» kabi savollarga tortilmadi. Darslarda faqat o'qituvchilarning fikri bilan kelishgan holda ish olib borildi. O'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabatida «sub'ekt- sub'ekt» munosabati o'rnatilmadi. Darsda o'quvchilarning faolligi ko'zga tashlanmadi. O'qituvchilarning ijodkorlik darajasi talab darajasida emas.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun qulay sharoit yaratilmagan. Boshlang'ich sinflarda o'qituvchining vazifasi o'qish malakalarini shakllantirish va ona tilidan elementar ma'lumot berish bilan bir qatorda o'quvchilarning mustaqil tafakkur yurita olish qobiliyatini o'stirishdan ham iboratdir.

Maktablarda o'qituvchilarning darslarini va ish tajribalarini o'rganish boshlang'ich sinfni tamomlayotgan o'quvchilarning darslik materiallari ustida ishlay olish iqtidorlarini, mustaqil ishlarni bajara olish darajalarini kuzatish natijasida shu xulosaga keldikki, o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarning

ijodiy ishlariga keng o‘rin bermaydilar, didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlarning turli ko‘rinishlaridan foydalanmaydilar, o‘quv material ustida o‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyati yetarli darajada uyushtirilmaydi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchisi darslik ustida ishlay olish ko‘nikmasini olmasdan turib yuqori sinfga ko‘chiriladi. Bu, bir tomondan, o‘quvchining bundan so‘ng o‘z bilimni oshirish ustida qunt bilan ishlashiga to‘sqinlik qilsa, ikkinchi tomondan, yuqori sinflarda ham o‘zlashtirish darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oqibat natijada o‘quvchilar maktabni bitirib chiqqanlaridan so‘ng davlat ta‘lim standartlari va davr talabiga javob bera olmaydilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ishning ikkinchi bobida biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirishning eng muhim omili sifatida o‘qituvchi-o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati jarayoni va mazkur jarayon texnologiyasini ishlab chiqishga harakat qildik.

## **I-bob yuzasidan xulosa**

Mazkur bobda dastlab, «Oila, maktab va mahalla hamkorligi» konsepsiyasining mohiyatini o'rganishga e'tibor qaratildi. Buning natijasida, barkamol avlodni tarbiyalashda ijtimoiy institutlar hamkorligining benihoya muhimligi, hamkorlikning huquqiy me'yorlari o'rganildi.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik muammo sifatida o'rganilganligi hamda mustaqil fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar nazariy jihatdan o'rganildi va tahlil qilindi.

O'rganilgan adabiyotlar tahliliga binoan, bugungi kungacha inson tafakkuri muammosi ko'pchilik tadqiqotchi-olimlarning o'rganish obyekti bo'lgan. Jumladan, chet el olimlari L.S.Vigotskiy, Dj.Dyui, Martin Xaydeger, R.I.Ivanov va o'zbek olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, Z.T.Nishonova, J.Musayev, Sh.Shodmonova, N.Saitova va boshqa olimlar inson tafakkurini shakllantirish hamda rivojlantirishga oid o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuv asosida o'rgatish haqiqatda ham zaruriy sharoitlar yaratishi, har bir darsda fikrlashga oid didaktik o'yinlar, mashqlar va topshiriqlardan foydalanish, mustaqil ishlarni izchil va muntazam o'tkazish, muammoli vaziyatlar yaratilishi va o'quvchilarni muammolarni hal etishga jalb etilishi, o'qituvchi-o'quvchi munosabatida «sub'ekt-sub'ekt» munosabatini o'rnatilishi bilan bog'liq. Faqat shundagina o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish jarayonini to'g'ri tashkil etishga, uning samarali yo'llarini izlashga, ijod qilishga imkon yaratiladi.

Boshlang'ich ta'limida o'quv jarayonini tashkil etishda an'anaviy usullardan voz kechib, o'quvchini ta'lim ishiga rag'batlantiradigan muammoli izlanish, mustaqil ishlash metodi va didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.

## **II BOB. OILA VA TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGI ASOSIDA O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING SAMARADORLIGI**

### **2.1.O'qituvchi-o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish omili sifatida**

Hozirgi kunga kelib, ta'lim-tarbiya jarayonida e'tibor qaratilayotgan eng muhim masalalardan biri - bu o'quvchi-yoshlarda mustaqil fikrlashni, tafakkur mustaqilligini, aqlning tanqidiyligini darsda va darsdan tashqari vaqtlarda keng jamoatchilik fikriga suyanan holda rivojlantirishdan iboratdir. Bizga ma'lumki, o'quvchi tafakkurining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilar hisoblanadi: oila, ota-ona munosabatlari, oiladagi sog'lom tarbiya va sog'lom muhit, ta'lim muassasalari, ta'lim-tarbiya jarayoni, tengdoshlar jamoasi.

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, g'oyaviy va psixologik munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'inidir. U o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyatturlarini aks ettiradi. Ota-onalarning bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy-axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi.

Xalqimizda “bola boshidan” degan naql bejiz aytilmagan. Chunki oila muhitida bolaning tarbiyasi, o'sishi va voyaga yetishi uchun asos mavjud. Sog'lom muhit, munosabatlarda iliqlik, o'zaro tushunish mavjud bo'lgan oilada nafaqat farovon va baxtli turmush, balki, farzand o'stirish va voyaga yetkazish munosib amalga oshadi. Shuning uchun farzandning sog'lom tug'ulishi, sog'lom o'sishi, sog'lom tarbiyalanishi va nihoyat sog'lom fikrli shaxs bo'lib shakllanishi ham oilaga bog'liq.

“Oilaviy tarbiya doimo o'zining murakkab va ko'p qirraligi, ajoyib va serjiloligi bilan ajralib turadi”<sup>19</sup>-, deb ta'kidlaydi A.Munavvarov. Har bir oila

---

<sup>19</sup> Zunnunov A., Xayrullayev M., To'xliyev B., Xotamov N. Pedagogika tarixi. – T.: «Sharq», 2000y. – 230b.

o'ziga xos bir olam, u tarbiya ishida o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o'zida namoyon qiladi.

O'zbek xalqining milliy xususiyatlari: axloqiylik, o'zini o'zi anglash, milliy tuyg'u, milliy madaniyat, milliy kiyinish va yurish-turishda o'z aksini topadiki, o'zbek oilasining tuzilishi va shaxslararo munosabatini o'rganishda bularni chetlab o'tish mumkin emas. O'zbek oilalari tuzulishiga quyidagi sifatlar xosdir: ko'p bo'alalik, oilada otaning bosh tarbiyachi sifatida namoyon bo'lishi, qarindoshchilik, bir necha avlodlarning birgalikda yashashi. Bular albatta, inson bolasining rivojlanishi va shakllanishiga katta ta'sirini ko'rsatadi.

O'quvchi shaxsining oilaviy turmush tarzi bilan o'quv maskanlarida beriladigan ta'lim-tarbiya darajasi orasidagi aloqadorlikning pedagogik jihatdan ta'minlanganligi hamda ta'lim oluvchilarning yutuqlari, ularda mustaqil fikrlashni hamda shaxsiy sifatning tarkib topib borishini jadallashtiradi.

Shundan kelib chiqib, biz o'z tadqiqot ishimizda oila diagnostikasini amalga oshirdik. Oila diagnostikasini amalga oshirishda oila va oilaviy munosabatlarning psixologik holatini, muhitni o'rganishga doir "Oilada pedagogik muhitni aniqlash" nomli so'rovnomadan foydalandik. Oila diagnostikasini olib borishda tajriba guruhidagi 57 ta o'quvchining ota-onasi so'rovnomalarni to'ldirishda ishtirok etishdi. So'rovnoma natijalari 2.1.1-jadvalda keltirilgan.


Oiladagi sog'lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning o'zaro yaxshi munosabati, mehribonligi, g'amxo'rliqi oiladagi farzandlarning munosabatlarini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Ayrim statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi intensiv turmush tarzini kechirayotgan oilalarda ideal siymoga yaqin ota xaftasiga farzandlari tarbiyasiga atigi 1,5 soat, ona 4-5 soat, ish bilan mashg'ul deb qaraluvchi ota – 15 minut, ona – 3 soat vaqtini ajratar ekan. Bundan ko'rinib turibdiki, bu ajratilgan vaqt bolalarning barkamol shaxs sifatida qaror topishida yetarli emas.



## 2.1.1-jadval

### “Oilada pedagogik muhitni aniqlash” so’rovnoma natijalari ko’rsatkichlari son va foiz (%) hisobida

T/r	Mezonlar	Yaxshi		Qoniqarli		Qoniqarsiz	
		Soni	% da	Soni	% da	Soni	% da
1.	Oiladagi pedagogik muhit darajasi	21	40%	26	42%	10	18%
2.	Sog’lom turmush tarzi	23	38%	27	45%	7	17%
3.	Oilaning ta’lim muassasasi bilan hamkorlikdagi faoliyati darajasi	20	30%	27	50%	10	20%



1-rasm. “Oilada pedagogik muhitni aniqlash” so’rovnoma natijalari ko’rsatkichlarining diagramma ko’rinishi.

Jadval va diagramma natijalariga muvofiq ko’rsatkichlar tahliliga nazar tashlar ekanmiz, sinaluvchilar oilalar guruhida oiladagi pedagogik muhit darajasi – 40%, sog’lom turmush tarzi – 38% va oilaning ta’lim muassasasi bilan hamkorlikdagi faoliyati darajasi mezoni bo’yicha – 30% oilalar yaxshi ko’rsatkichga ega ekanligi ma’lum bo’ldi. Bu jihat ulardagi pedagogik bilimning yetarlicha ekanligida hamda farzandlar sog’ligini mustahkamlashda ma’suliyatni his qilishida va ularning o’qish faoliyati bilan doimiy qiziqib borishida namoyon bo’ladi. Mazkur oilalar farzandlar uchun ko’proq vaqt ajratishga harakat qilishadi. Berilgan javoblardan shu ma’lum bo’ldiki, ular farzandlarining o’qishdagi do’stlari

va o'qituvchilari haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega. Hamda ular farzandlarining o'qish faoliyatidagi yutuqlari va muvaffaqiyatlarini qo'llab-quvvatlashadi.

Shuningdek, 42%, 45% va 50% oilalar o'rta ko'rsatkichga ega ekanliklari aniqlandi. Mazkur ko'rsatkichga xos oilalarda ham farzandlarning sog'lom rivojlanishiga hamda o'qish faoliyatini olib borishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan, lekin mazkur oilalarning yuqori natija ko'rsatgan oilalardan farqli jihati farzandlarga ajratilgan vaqt hajmining kamligidadir. Biroq berilgan javoblarning aksariyatida ota-onalar farzandlarining ertangi kun hayotlari bilan qiziqishini, ularning salomatligiga va o'qib-o'rganishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor berishini ta'kidlagan. Bu kabi oilalarda tarbiya olayotgan o'quvchilar xarakterida biror bir ishni amalga oshirishda atrofdagilar fikrini hisobga olmaslik va mustaqil hatti-harakatlarni amalga oshirish ko'zga tashlanadi.

Jadvaldan ma'lumki, 18%, 17% va 20% oilalar quyi darajani tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, mazkur oilalarda keltirilgan mezonlar bo'yicha ko'rsatkichlar qoniqarsiz darajada. Bunday natijaning kelib chiqishiga turli xil obyektiv sabablar bo'lishi mumkin. Bu holatga ota-onalar tomonidan to'ldirilgan so'rovnomalar asosida javob beramiz. Quyi natijaning kelib chiqishiga mazkur holatlar sabab bo'lgan: a) er-xotinning doim ish bilan band bo'lishi; b) bolaning yoki onasi bilan, yoki otasi bilan yashashi; s) oilaviy nizolar (iqtisodiy nochorlik, kam ta'minlanganlik, ishsizlik va boshq.); d) oilalarning noto'liqligi; e) er-xotinning oliy ma'lumotga ega emasligi; f) farzandlarning ta'lim-tarbiyasiga e'tiborning kamligi; g) ota-onalarda pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi va boshqalar. Shu o'rinda quyidagi ma'lumotni keltirib o'tish lozimki, ota-onalar tomonidan to'ldirilgan so'rovnomalarda farzandlari o'qiyotgan ta'lim muassasasi o'qituvchilari reja asosida mazkur oilalar bilan hamkorlikda doimiy ish olib bormaganligi ta'kidlangan.

Savolnomada keltirilgan "Sizning fikringizcha, shaxs rivojlanishida va taraqqiy etishida qaysi ijtimoiy maskan va omil eng ko'p darajada ta'sir ko'rsatadi?" (% da) savoliga berilgan javob natijalari:

## 2.1.2-jadval

1.Ijtimoiy maskan va omillar	Oila	Mahalla	Ta'lim muassasasi	Ijtimoiy muhit	Televideniya	Matbuot	Din	Adabiyot	Kinoteatr
2.Ko'rsatkichlar (% da)	75%	42%	44%	33%	26%	8%	11%	7%	5%

Demak, shaxs rivojlanishiga ta'sir etadigan ijtimoiy maskan va omillar orasida oila va oilaviy tarbiya, mahalla, ta'lim-tarbiya tizimi maskanlari hamda ijtimoiy muhit ta'siri yuqori ekan, farzand tarbiyasi, farzandning barkamol bo'lishida oilaning boshqa ijtimoiy maskanlardan farq qiladigan jihatlarini doimo bilishimiz va yodda tutishimiz zarur.

Bugungi kun o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak, u qanday kasbiy bilimlarga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning zamonaviy talablarini o'zlashtirganmi, o'qitish jarayonida o'quvchi-yoshlar bilan hamkorlikda ishlash usullarini faoliyati davomida samarali qo'llay oladimi mazmunidagi savollar barcha o'qituvchilarni hamda bo'lajak pedagoglarni o'z ustida yanada ko'proq ishlashga, o'qib-izlanishga majburlaydi. Shu sababli, ilmiy farazimizdan kelib chiqib, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda "o'qituvchi-o'quvchilar" hamkorligi muhim o'rin tutishini ta'kidlab, uning mazmunini yoritishga harakat qildik.

Muammo yuzasidan olib borilgan kuzatishlarimiz davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi alohida diqqat markazida tutiladi.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la

olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmgina bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Bizningcha, o'quv vaziyati ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi o'zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat:

- o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligi;
- o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

O'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorligi o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o'quv harakatlariga aylanadi. Natijada, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o'sib o'tadi.

Yig'ilgan ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, ijodiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o'zlashtirish mahsuldor bo'ladi. Ilmiy manbalarda ta'limning shunday tashkil etilishini hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat vaziyati, deb atash qabul qilingan.

Pedagogik adabiyotlar tahlili va ijodiy tajribalarimiz natijalariga ko'ra hamkorlikdagi mahsuldor o'quv faoliyati vaziyatini tashkil qilishning 2 asosiy tamoyilini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko'ra shaxs o'z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning uzluksiz shakllanishi ko'zga tashlanadi.

2. O'qituvchi-o'quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog'liqligi tamoyili.

O'quv jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning ta'limga qay darajada ixlos qo'yishi o'qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi muhitning to'g'ri uyushtirilishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g'ayratini sarflashga undaydi. Bu

o‘zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o‘quvchi o‘zini pedagogik ta’lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O‘qituvchining o‘rganilayotgan fan bo‘yicha qaysidir bir ma’lumotga aniqlik kiritish paytida o‘quvchilarga yordam so‘rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi.

O‘quvchilarni o‘rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o‘qish-o‘qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishninggina sharti bo‘lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. O‘quvchi o‘qitish va tarbiyalash jarayonining o‘zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi.

Sh.A.Amonashvili ta’lim jarayonida o‘quvchi bilan hamkorlik munosabatini o‘rnatish lozimligini ta’kidlab, shunday deydi: «O‘quvchining o‘quv-biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o‘quv material va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta’lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko‘ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo‘lgan muhitda o‘quvchi o‘quv topshiriqlarini oson o‘zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko‘rgan o‘quvchi yanada murakkab bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi».

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga munosabati o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro ta’sir jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi, o‘quv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish usullariga, o‘quv natijalariga qo‘yiladigan baho tizimiga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Ijodkorlik va o‘zaro hamkorlik bir-biriga mustahkam bog‘liq. Zero, faqatgina ijodkorlik asnosida hamkorlik vujudga keladi va mana shu hamkorlikda ijodkorlik o‘z ifodasini topadi. Pedagogik ijodkorlikni faqatgina yangilikka, tajribalar o‘tkazishga intilish deb tushunmaslik kerak. Bu intilish sog‘lom fikrning rasmiyatchilik ustidan g‘alabasini ham ifoda etadi. Demokratiya, oshkoralik bo‘lmagan joyda, ma’muriyatchilik va o‘qituvchining irodasi bilan dars jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatiga rahna solinsa ijodiy hamkorlik

barham topadi. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rin tutadi. O'quvchi o'zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o'quv tajribasiga tayanib og'zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda ona tilining o'zi uchun noma'lum qirralari xususida o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo'ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi. O'qituvchi bunday hamkorlik jarayonida o'quvchilarning nutqini o'stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarning so'z boyligi, qiziqish doirasini aniqlaydi, ijodiy iqtidorini chamalaydi. Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir.

Boshlang'ich sinf "Ona tili" mashg'ulotlari jarayonida o'zaro muloqot ta'lim samaradorligini oshirishga yaqindan yordam beradi. O'quvchilar bilan muloqotda ularning qiziqishini muayyan maqsadga yo'naltirish, fikr-mulohazalarini albatta inobatga olmoq joiz. O'qituvchi shakllantiruvchi muloqot davomida faqat bir o'zi gapirmasdan o'quvchilarning fikrlarini ham eshita bilishi lozim. O'qituvchining savollari shunday shaklda berilishi lozimki, ular o'quvchini fikr bildirishga, mulohaza yuritishga da'vat etsin. Dialogning har bir qatnashchisi uni davom ettirishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Birinchidan, bunda fikrlarning turli-tumanligi, ikkinchidan, mavzuga baho berish va tushunishdagi har xillik, uchinchidan, til vositalarining umumiyligi samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muloqot davomida «bir tillilik» bo'lmaganda bir fikrga kelish juda qiyin. Jumladan, ayrim hollarda targ'ibotchi masalani bayon etishda murakkab va notanish atamalardan foydalanishi natijasida o'quvchilar uning fikrini tushunmaydilar. Agar ta'lim jarayonida dialog amalga oshmasa, o'qituvchi materialni o'quvchilarga yetkazishning zarur shaklini topa olmagan hisoblanadi. Demak, muloqotga kirishi qiyin bo'lgan kamgap o'quvchilar ham suhbatda ishtirok etmasa, to'laqonli hamkorlik amalga oshmaydi.

Kuzatishlarga qaraganda, ikki tomonlama hamkorlik samaradorligi o'quvchilarning fanga nisbatan qiziqishi darajasi orqali aniqlanadi. O'quvchi berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarsa hamkorlik ham oson kechadi.

Sh.A.Amonashvili fikricha, pedagog va o'quvchilarning o'rtasida insonparvar munosabatlarni o'rnatish uchun quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

1. Ta'lim jarayoni va o'quvchilar faoliyatini boshqarishda o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqish kerak.

2. Har bir o'quvchining imkoniyatlari va kelajagiga ishonch namoyon qilish lozim.

3. O'quv topshiriqlarini hal qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan kuch-g'ayrati va qiziqishlarini birlashtirgan holda hamkorlik qilishi lozim.

4. O'quvchilar bilan munosabatda axloq me'yorlariga rioya qilish, ularning yutuqlariga e'tibor berish va qo'llab-quvvatlash lozim. Bu o'quvchilar bilan munosabatlarni o'zaro ishonch asosida o'rnatish, o'rtoqlari va oilasi davrasida har bir o'quvchining obro'yini ko'tarish, jamoada o'zaro hurmatni tarkib toptirish, muomala madaniyatini shakllantirish, har bir o'quvchining qiziqishlariga e'tibor berish demakdir. Bunday savollarga javob topish o'quvchilardan bilimdonlikni talab etadi.

Ta'lim jarayonida sub'ekt bilan sub'ekt munosabatini o'rnatish masalaning muhim omillaridan sanalib, o'quvchida bilish faoliyatini sekin-asta shaxslikka aylantirishga imkoniyat tug'iladi. Dars jarayonida o'quvchilarning mantiqiy va mustaqil fikrlash mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar orqali ularni tegishli xulosalar chiqarishga tayyorlash o'qituvchining muhim vazifalaridandir. Ayni holatda o'qituvchi diagnostik vazifalarni bajarish yordamida o'quvchilarning bilimlarni sifatli o'zlashtirishini ham nazorat qiladi.

Ta'lim ma'lum bir doirada, jamiyatdan alohida tarzda amalga oshadigan jarayon bo'lmay, bir qancha tashqi omillar ta'siri ostida sodir bo'ladigan pedagogik jarayondir. Shunday ekan, ta'lim jarayonining asosi bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga qanday omillar ta'sir qiladi? Quyida bir qancha omillar misol tarzida keltiriladi.

Avvalambor, umumiy ijtimoiy vaziyat haqida fikr yuritamiz. Ijtimoiy vaziyat jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va shu kabi voqea va hodisalar jamiyat a'zosi sifatida o'qituvchi va o'quvchi ongida aks etadi, o'z navbatida, ular o'rtasidagi munosabatlarda muhim o'rin tutadi.

O'qituvchi va o'quvchi munosabatida ular atrofidagi ota-onalari, qarindosh-urug'lari, do'stlari, hamkasblari, qo'ni-qo'shnilari va boshqalar ham muhim o'rin egallaydilar. Turli kasb va dunyoqarashdagi insonlar bilan muloqot natijasida o'qituvchi va o'quvchilarda tegishli fikr-mulohazalar tug'iladi. Ayni shu mulohazalar o'qituvchi va o'quvchi munosabatiga ijobiy yoki aksincha salbiy ta'sir qilishi mumkin.

O'qituvchining psixologiyaga oid bilimlari, pedagogik mahorati, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi bilan bog'liq yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish ularning ko'ngliga yo'l topish va shu orqali nutqini o'stirish, ijodiy tafakkurini yuksaltirishga imkon beradi.



## **2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish texnologiyasi va didaktik ta'minoti**

Ma'lumki, shu kungacha ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini, natijaviyligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan texnologiyalarni o'rganishimiz natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish ko'p bosqichli, murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayon texnologik yondashuvni talab etadi.

Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirishda uzluksiz ta'lim jarayonida davlat va jamoatchilik tashkilotlarining boshqaruvini takomillashtirishni, ularning ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir doirasini yanada kengaytirish zarur. O'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish mazkur jarayon oldida turgan o'ziga xos vazifalar bilan bog'liqlikda mavjud aniq moddiy-ma'naviy asosni talab etadi. Mazkur vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonining asosini – kutiladigan natijalar va unga erishish usullari, erishish usullarini modellashtirishni talab etuvchi rejalashtirish, ishlab chiqilgan reja va modellarni amalga oshirish, bunda esa kishilarning faoliyat va xulq-atvorini boshqarish bilan bog'liqlikdagi pedagogning o'quv-tarbiyaviy faoliyati tashkil etadi.

Odatda, tafakkur jarayoni biror vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, uning dastlabki bosqichi modeli darajada muammoli vaziyatni ko'proq yoki kamroq adekvatli anglanishini o'zida aks ettiradi. Mazkur jarayonning qanday kechishi va rivojlanishi esa, adekvatli ijodiy fikrlash kema-ketligiga bog'liq bo'ladi. Aynan adekvatli (ilmiy) ijodiy fikrlash jarayonida inson taqqoslash, tahlil etish, umulashtirishni amalga oshiradi.

O'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish jarayoni bilan bog'liqlikda pedagogik vazifalarni tanlab olish bosqichlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Yo'naltiruvchi bosqich. Mazkur bosqichda o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish, faollashtirish metodlari (matn va ilmiy matn bilan ishlash)ni o'zlashtiradi.

2. Izlanish bosqichi. O'quv vazifalari va topshiriqlari dalil (voqea, hodisa)lardan tashkil topadi va mazkur dalillarning kelib chiqish sabab-oqibatlarini va ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlashni talab etadi. Vazifaning anglanishi faqat qonun (mohiyatli sabab-oqibat aloqadorligi) va uning modeli tasviri asosida hal etilishi mumkin.


3. Shakllantiruvchi bosqich. Mazkur bosqichda o'quvchilar mustaqil ravishda sabab-oqibat aloqadorliklarini aniqlash va modellashtirish asosida vazifalarni hal etishga kirishadilar.

4. Tadqiqotchilik bosqichi. Ushbu bosqichda o'quvchilar ijtimoiy hodisalarni tasnif qilish, vazifalarni hal etish va qarorlarni tahlil etish, ijtimoiy vaziyatlarni o'zida adekvatli aks ettirish, aniq vazifalarni mustaqil hal eta olishga o'rganadilar.

O'quvchilar bilish faoliyatining mazkur darajalarini hisobga olgan holda, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga imkon beruvchi ijtimoiy pedagogik vazifalarni to'rt guruhga ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) elementar modeli muammoli vaziyatlarni hal etishga doir vazifalar;
- 2) sodda modeli muammoli vaziyatlarni hal etishga doir vazifalar;
- 3) murakkablashtirilgan modeli muammoli vaziyatlarni hal etishga doir vazifalar;
- 4) murakkab modeli muammoli vaziyatlarni hal etishga doir vazifalar.

Shu maqsadda o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish tizimini quyidagicha tasvirladik:



**2.2.1-rasm. O'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish tizimi**

Ta'lim va tarbiyaga texnologik yondashuv – o'qitish va tarbiyalash natijalariga asoslanib, mazkur jarayonlarning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, ta'lim va tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Texnologik yondashuv imkoniyati ta'lim va tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi – ko'plab omillar ta'siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdir. Ko'p bosqichlilik o'quvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o'tish bilan tavsiflanadi.

Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqishda shu kungacha amaliyotga joriy etilgan tarbiya va ta'lim texnologiyalari materiallaridan foydalandik. Texnologiyani bayon etish uchun dastlab kutiladigan natija, natijadan kelib chiqib qo'yilgan maqsad hamda oydinlashtirilgan faoliyat vazifalariga to'xtalib o'tish lozim .

<b><i>Maqsad</i></b>	Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish.
<b><i>Pedagogik vazifalar</i></b>	1) o'quvchi-yoshlarda o'quv-bilish faoliyatiga nisbatan motivatsion tizimni shakllantirish; 2) ularda shaxsiy va ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni analitik tahlil qilish, o'z munosabatini qat'iy bildirish va tanqidiy bildirilgan fikrlarni qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirib borish; 3) o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-

	o'ziga ijobiy munosabatni shakllantirish; 4) shaxslararo munosabatda sog'lom muhitni yarata olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.
<i>Kutiladigan natija</i>	O'quvchi-yoshlarda fikr, fikrlash jarayoni va qonuniyatlariga doir nazariy hamda inson ongini rivojlantirishga doir amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish orqali ularda mustaqil fikr yuritish tarzining yorqin namoyon bo'lishiga erishish.

**2.2.1-jadval. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning texnologik modeli**

O'qituvchi texnologik modelni ishlab chiqishda, asosiy maqsadni aniqlashda, pedagogik vazifalarni belgilashda mavjud shart-sharoitni, o'quvchilarning bilim darajasini, ularning qiziqishlarini hisobga olishi, shuningdek, qo'yilgan maqsadga erishishning eng samarali yo'llari, usullarini tanlay bilishi va o'qitish jarayonida qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. So'ngra, mashg'ulot mavzusi, mashg'ulotda ko'riladigan asosiy masalalar, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, mashg'ulotni tashkil etish shakllari, bosqichlari, mashg'ulotda qo'llaniladigan metod, usullar va texnik vositalar texnologik xaritada o'z aksini topadi.

<b>Bosqichlari</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Metod va usullari</b>
<i>Motivatsion-diagnostik</i>	Shakllantirilayotgan xususiyat bilan o'zaro ta'sirga kirishish– bu munosabat, baholash; o'z tajribasiga, o'zining qadriyatlar tizimiga kiritish bilan bog'liq. Mazkur xususiyatga ijobiy emotsional munosabatni tarkib toptirish	Muammoli tavsifdagi suhbat, o'yin tavsifidagi mashqlar, bahs-munozarali o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, erkin yozish, aqliy hujum, fikrlar hujumi, o'z-o'zini baholash

<i>Axborotli-kognitiv</i>	Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga shakllantirilayotgan xususiyat haqida tushunchalar berish, tasavvurlar hosil qilish, yaxlitlikda bilimlarni tarkib toptirish	Tushuntirish, o'rgatish, namuna ko'rsatish, reproduktiv obrazli suhbat, test (asosiy tushunchalar mazmuniga oid, tushunchali), tugallanmagan gaplar metodikasi, "qalin va ingichka savollar metodi", didaktik o'yinlar.
<i>Faoliyatli</i>	Hosil qilingan bilimlar, fikrlash tarzini o'quv faoliyati va muloqotning real hayotiy sharoitlariga kiritish. Mustaqil fikrlashni amaliy topshiriqlarni bajarish, mustaqil ish tayyorlash, mashq qilish yo'li bilan mustahkamlash.	Mashq, namoyish etish, mushohadali tajriba, pedagogik vaziyatlar, real hayotiy vaziyatlar, musobaqa, rag'batlantirish, loyiha, o'yinli vaziyat, matn ustida ishlash, pedagogning suggestiv faoliyati.
<i>Qadriyatli</i>	Shakllantirilgan xususiyatni qadriyatlar tizimiga kiritish orqali qadriyatli yo'nalganlikni tarkib toptirish Barqaror e'tiqod va qarashlar tizimining shakllanishi hamda o'zaro birgalikdagi faoliyat malakalarini egallash	Ijtimoiy voqelik, vaziyatlarni tahlil qilish va munosabat bildirish, rolli vaziyatlar, "Tanqidiy fikrlashni aniqlash" metodikasi", "Fikr bildirish" metodikalari, "Ishontirish maktabi", "Mulohaza, sabab, misol va umumlashtirish".

**2.2.2-jadval. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning texnologik xaritasi**

Didaktik ta'minot deganda psixologiya, pedagogika, valeologiya, informatika va boshqa fanlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan xilma-xil o'quv axborotlarining didaktik maqsad va vazifalariga ko'ra o'zaro aloqador majmui.

Didaktik ta'minot deganda shaxsning axboriy madaniyatini shakllantirish uchun didaktika, psixologiya, ergonomika, informatika va boshqa fan sohalarining muvafaqqiyatlariga asoslangan holda tashkil etilgan o'quv axborotlari majmuasi tushuniladi.

Didaktik ta'minot quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

- 1) nazorat topshiriqlari, test savollari bankining mavjudligi;
- 2) o'quv fani bo'yicha didaktik materiallarning mavjudligi: audio-video materiallar, kompyuter dasturlari, jadval, slaydlar, tarqatma materiallar.
- 3) o'z-o'zini nazorat qilish va mustaqil ish topshiriqlari va boshq.

Didaktik ta'minot o'quv fanini o'zlashtirish uchun axborotlarning to'liqligi va yetarli hajmda bo'lishi, pedagog va o'quvchilarning birgalikdagi intellektual-emotsional o'zaro harakati mazmuni va usullarining variativligi, interfaollik, dialoglik, muammolilik, amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan axborotlarning originalligi va tartibga solinganligi bilan xarakterlanadi. U ta'lim oluvchining axborotlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va korreksiyalash maqsadida foydalaniladi va ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish texnologiyasi bosqichlariga asoslangan holda, har bir bosqichida qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni quyidagicha loyihalab olish zarur.

O'quvchi-yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning **motivatsion bosqichi** haqida gap ketganda eng avvalo, "motiv", "motivlashtirish" tushunchalarining mazmun va mohiyatiga to'xtalib o'tish lozim.

Motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig'indisi. Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma'noni bildiradi<sup>20</sup>.

Motivatsion-diaagnostik bosqichni amalga oshirishda biz o'quvchilar guruhida tadqiqot maqsadidan kelib chiqib suhbatlar, munozaralar uyushtirdik.

---

<sup>20</sup> Xodjaye B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7 sinf tarix darslari misolida): Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., - 36b.

Texnologiyaning mazkur bosqichida muammoli tavsifdagi suhbat, o'yin tavsifidagi mashqlar, bahs-munozarali o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, erkin yozish, fikrlar hujumi, o'z-o'zini baholash kabi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Muammoli tavsifdagi suhbat.** Mazkur suhbat turi tarbiyalanuvchilar bilan tahliliy-izlanishli tarzda amalga oshiriladi. Savol-javobni tashkil etishda quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish zarur:

1) savollar o'quvchilarning dunyoqarashiga, ega bo'lgan ma'lumotlariga asoslanishi;

2) savollar o'qib eshittirilgan ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish bilan cheklanuvchi javoblarni talab etmasligi;

3) savollar mazmunining o'zaro bir-biri bilan bog'liqligiga e'tibor qaratish.

Bunda oila va ta'lim muassasasi bilan bog'liq real hayotiy vaziyatlar, ularning yechimlari, xususiyatlari bilan bog'liqlikda qator muammoli tavsifdagi suhbatlarni amalga oshirish mumkin.

Motivatsion-diagnostik bosqichda keng foydalanishni talab etuvchi metodlardan yana biri bu – munozaradir. **Munozara** – bahslashuvni talab etuvchi biror masalani erkin muhokama qilish. Ta'lim-tarbiya jarayonida bahs-munozarali o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishdan avval o'quvchilarga quyidagi ko'rsatmalarni eslatib o'tish zarur:

1) muammoni muhokama qilishda shay va tayyor bo'l. Muammo nimaga qaratilganligi, uning mohiyatini anglab olgin;

2) muammo yuzasidan o'z fikringni bildir, boshqalarga ham o'z fikrini ifodalashga imkon ber;

3) boshqalarning fikrini diqqat bilan tingla;

4) so'zlayotgan kishining fikrini chalg'itma, ma'qul deb topmagan o'rinlarini belgilab bor, so'ngra so'zga chiqish uchun ruxsat so'ra;

5) g'oyalarni tanqid qil, biroq so'zga chiqqan kishini emas. Shaxsiyat bilan bog'liq jummalarni ishlatma;

6) munozara ishtirokchilari qabul qilgan qarorlarni hisobga ol, boshqalarning fikrlarini qadrla;

7) istalgan yo'l bilan qurollangan holda bahsga g'alabaga erishishga harakat qilma;

8) albatta oraliq va yakuniy xulosalarga kelish lozim.

**Fikrlar hujumi** – mazkur metod qo'yilgan muammo, masala, savolga nisbatan barcha o'quvchilarning o'z fikrini bildirishini va misollar keltirishini ta'minlaydi hamda o'z nuqtai nazaridan yondashishga yo'naltiradi, guruhdoshlari tomonidan bildirilgan fikrlar bilan o'zining fikrini solishtiradi, taqqoslaydi va xulosaga keladi.

O'z-o'zini baholash – shaxsning o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmatini, kamchiliklarini baholay olishi. Bu holat kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda yaqol ko'zga tashlanmaydi, bunda albatta o'qituvchi ko'magi zarur bo'ladi.

Texnologiyaning **axborotli-kognitiv bosqichi** asosida hamkorlikda faoliyatni tashkil etish qoidalari, shaxslararo munosabatlarga kirisha olish ko'nikmalarini hosil qilish, voqea-hodisalarni tahliliy baholay olish qobiliyatini rivojlantirish, voqelikni rivojlanib borishining ehtimoliy variantlarini bashorat qilish va shu asosda mustaqil qaror qabul qila olish kabilar yotadi.

Axborotli-kognitiv bosqich o'z navbatida ikki qismdan tashkil topadi: axboriy va kognitiv. Axboriy darajada mustaqil fikr bilan bog'liq nazariy bilimlar egallansa, kognitiv darajada mazkur bilimlarning amaliy-faoliyatli ko'rinishiga o'tkazilishi uchun zaruriy ko'rsatmalar taqdim etiladi. Mazkur bosqichda suhbat, tushuntirish, o'rgatish, namuna ko'rsatish, test (asosiy tushunchalar mazmuniga oid, tushunchali), tugallanmagan gaplar metodikasi kabi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish texnologiyasining uchinchi – **faoliyatli bosqichining** asosini xilma-xil konstruktiv muloqot shakllarida ishtirok etish, muloqotning yangi shakllarini loyihalash va amalga oshirish tashkil etadi. Bu maqsadlarga quyidagi pedagogik shartlar bajarilganidagina erishish



mumkin: trening mashg'ulotlarini tashkil etish, mustaqil fikr mazmuni bilan boyitilgan real hayotiy vaziyatlarga kiritish; o'quvchilar o'z-o'zini axloqiy takomillashtirish vazifalarini ongli ravishda o'z oldiga qo'yishlari kerak; oila va ta'lim muassasasining hamkorlik shakllarini yanada rivojlantirish; pedagogik ta'sir odimlovchi tavsifga ega bo'lishi, o'zida yangi, biroq hozirgacha shaxsiy tajribada sinovdan o'tganlardan iborat bo'lishi kerak.

Faoliyat real pedagogik vaziyatlarni yaratish jarayonida tashkil qilinadi hamda motivatsion va mazmunli bosqich imkoniyatlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichda mashq, namoyish etish, mushohadali tajriba, pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari, reproduktiv obrazli suhbat, musobaqa, rag'batlantirish, loyiha, o'yinli vaziyat, matn ustida ishlash, hamkorlikda ishlash, pedagogning suggestiv faoliyati kabi metod va usullaridan foydalanish mumkin.

**Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari:** talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri. **Talab** – o'qituvchining o'quvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo'lib, o'quvchining xatti-harakati o'qituvchi nazoratida bo'ladi. Bunda ijobiy jihatlar rag'batlantiriladi yoki aksincha nojo'ya harakatlar to'xtatib qo'yiladi.

**Istiqbol** – ta'sirchan pedagogik usul bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma'lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi.

**Rag'batlantirish va jazolash**-ta'sir etishning eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishdan va maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirishdan iborat.

**Jamoatchilik fikri**-bu usul o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag'batlantirib borishda namoyon bo'ladi<sup>21</sup>.

**Pedagogning suggestiv faoliyati** – (lot. Suggest-ishontirish, taklif qilish) o'quvchining ongiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi fikr-mulohazalarini ta'sirchan nutq orqali va dalillar asosida o'quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir etadi hamda uni qisman o'zgartiradi.

---

<sup>21</sup> Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-moliya». 2010y. B.55-58

Ishontirish o'qituvchining kasb faoliyatiga taaluqli bo'lgan murakkab faoliyatida asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi. O'quvchi ongiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan suggestiv faoliyat usuli o'qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida o'rganilayotgan mavzuga taaluqli muqobillik mavjud bo'lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo'ladi.

Texnologiyaning **qadriyatli bosqichi** baholovchi tavsifga ega bo'lib, shakllantirilayotgan xususiyatni ichki qabul qilish va dunyoqarash tizimiga aylanishini ta'minlaydi. Qadriyatli bosqichning muvaffaqiyati quyidagi pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni talab etadi:

- 1) o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishga nisbatan barqaror munosabatlarni qaror toptirish;
- 2) o'zi amalga oshirayotgan hatti-xarakatlari, tafakkurlash tarzi ko'nikmalarini o'quvchilarning o'zlari tomonidan doimiy baholab borilishi;
- 3) faoliyat natijalarini tahlil etish va kelgusidagi faoliyatni maqsadli tashkil etish;
- 4) olingan ma'lumotlardan kelib chiqib korreksion ishlarni tashkil etish

Mazkur bosqichda ijtimoiy voqelik, vaziyatlarni tahlil qilish va munosabat bildirish, rolli vaziyatlar, jonli muloqot, o'z-o'zini nazorat qilish "Mulohaza, sabab, misol va umumlashtirish" kabi metod va usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

**"Fikr bildirish" metodi.** Mazkur metod tarbiyalanuvchilarning o'z qadriyatli tasavvurlari bilan bog'liqlikda fikrlarni to'g'ri baholay olish qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladi. Metodni qo'llash uchun eng avvalo, baholovchi tavsifga ega fikrlar shkalasi hosil qilinadi. Mazkur fikrlarni baholash uchun "baholovchi so'zlar" taklif etiladi. Tushunib olishi uchun o'quvchiga hayotiy misollar keltiriladi va ularga o'z munosabatini bildirishi lozimligi so'raladi. O'quvchi fikr bildirishda "doimo", "tez-tez", "ba'zan", "hech qachon" kabi javoblardan yoki 5,4,3,2,1-balli baholash tizimidan foydalanadi.

**Jonli muloqot** – o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir. O'qituvchi-o'quvchi o'rtasida tashkil etiladigan jonli muloqot ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, quyidagi funksiyalari bilan xarakterlanadi:

- o'quvchilarning psixik holatini mukammal bilishi;
- ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni birgalikda tashkil etishi;
- o'quvchini erkin fikr-mulohaza yuritishga o'rgatishi;
- salbiy holatlarni o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda bartaraf etishi;
- o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini qo'rqmasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;
- o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini uyg'otish va boshqalar<sup>22</sup>.

---

<sup>22</sup> Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-moliya». 2010y. B.97-99

### **2.3. O'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlari tahlili**

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda olib borildi. Birinchi – izlanuvchi bosqichda muammoning maktab amaliyotidagi ahvoli o'rganildi, tahlil qilindi. Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari, ob'yekti, predmeti, ilmiy farazi va tajriba-sinov ishlarining obyekti belgilab olindi. Ikkinchi - tasdiqlovchi bosqichda 2-3-sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi va rivojlantiruvchi topshiriqlar majmuasi tuzildi, undan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi. Shuningdek mazkur bosqichda o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish texnologiyasi va uning didaktik ta'minoti ishlab chiqildi. Tajribaning uchinchi bosqichida tajriba materiallarining ma'qulligi va samarasini tekshirish ishlari o'tkazildi.

Birinchi bosqichda o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida Jarqo'rg'on tumanidagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-3-sinf o'quvchilaridan 113 nafari tajriba-sinov maydoniga jalb etildi.

Ona tili darslarida 2-3-sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanganlik ko'lamini o'rganish maqsadida tajriba-sinov o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlarida bilimlarni tashxis qilishning turli xil usullari qo'llanildi: test o'tkazish, yozma ish, qiziqarli topishmoqlardan, so'rovnoma o'tkazish.

Ikkinchi bosqichda olib borilgan ilmiy izlanishlarning tahlili sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi va uning didaktik ta'minoti ishlab chiqildi. Shuningdek, ota-onalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari ishning 2.1-bandida o'z aksini topgan. Tajriba - sinov ishining uchinchi bosqichida maxsus ishlab chiqilgan metodika va o'quvchilarda mustaqil fikrlashni o'stirish usullarini qo'llash yuzasidan faoliyat olib borildi va 7-umumiy o'rta ta'lim maktabining 2 - sinf o'quvchilaridan jami 54 nafar, 3-sinf o'quvchilaridan esa 59 nafari jalb etildi. Tajriba-sinov ishi natijalarining samaradorligini ta'minlash maqsadida, ixtiyoriy tanlash orqali 2-A sinf va 3-A

sinflarni tajriba guruhi sifatida, 2-B sinf va 3-B sinflarni esa nazorat sinflari sifatida belgilab oldik.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi sinflarda olib borildi.

**2.3.1-jadval**

T/r	Maktab	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi		Jami o'quvchilar soni
		Sinf	O'quvchilar soni	Sinf	O'quvchilar soni	
1.	<b>7-maktab</b>	2-A	28	2-B	26	<b>54</b>
2.	<b>7-maktab</b>	3-A	29	3-B	30	<b>59</b>
	<b>Jami</b>	<b>2 ta</b>	<b>57 nafar</b>	<b>2 ta</b>	<b>56 nafar</b>	<b>113 nafar</b>

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, dars jarayonida beriladigan har bir yo'lovchi topshiriq hech kimni befarq qoldirmaydi va o'quvchilarning faol ishtirokida mustaqil bajariladi.

O'quv jarayonini tashkil etishda 2.2-bandda keltirilgan metodlar, usullar va tavsiyalardan foydalanildi.

Tadqiqot yakunida olingan natijalar tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichidagi o'quvchilarning fikrlash darajalari bilan taqqoslandi. Shunday qilib, 2-3-sinflarning nazorat sinfidan 56 nafar (2-B sinfdan 26 nafar, 3-B sinfdan 30 nafar o'quvchi), tajriba sinfidan 57 nafar (2-A sinfdan 28 nafar, 3-A sinfdan 29 nafar o'quvchi), jami 113 nafar o'quvchi ishtirok etdi va tajriba-sinov yakunida o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajalari yuqori, o'rta va quyi daraja bo'yicha quyidagicha bo'ldi:

**2.3.1-jadval**

**2-sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash darajalarining son va sifat**

**ko'rsatkichi**

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	2-A sinf (28 nafar)	2-B sinf (26 nafar)	2-A sinf (28nafar)	2-B sinf (26 nafar)	2-A sinf (28nafar)	2-B sinf (26 nafar)
	Taj.sinfi	Naz.sinfi	Taj.sinfi	Naz.sinfi	Taj.sinfi	Naz.sinfi
2-sinf o'quvchilari (jami 54 nafar)	4/7	3/4	13/17	11/12	11/4	12/10

Foiz hisobida	14.2 /25.0	11.5 /15.3	46.4/60.7	42.3/46.1	39.2/14.2	46.1/38.5
---------------	------------	------------	-----------	-----------	-----------	-----------

### **3-sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash darajalarining son va sifat ko'rsatkichlari**

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	3-A sinf (29 nafar)	3-B sinf (30 nafar)	3-A sinf (29nafar)	3-B sinf (30 nafar)	3-A sinf (29nafar)	3-B sinf (30 nafar)
	Taj.sinfi	Naz.sinfi	Taj.sinfi	Naz.sinfi	Taj.sinfi	Naz.sinfi
3-sinf o'quvchilari (jami 59 nafar)	6/9	4/6	13/16	11/12	10/4	15/12
Foiz hisobida	20.7/31.0	13.8/20.7	44.8/55.2	36.6/40.0	34.5/13.8	50.0/40.0

*Izoh: (4/7) kasr surati (4 nafar)- tajribagacha, kasr maxraji (7 nafar)-tajribadan keyingi natijani o'zida aks ettiradi.*

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, biz tajriba-sinov ishlarining bu bosqichida material tanlashda natijalar real bo'lishi uchun, birinchi bosqichdagi material mazmunidan kelib chiqib, topshiriqlarning shartini o'zgartirmaslikka harakat qildik.

Jadvalda keltirilgan son va foiz ko'rsatkichlarni tahlil qilganimizda, tajribaning birinchi bosqichida olingan natijalar qayta takroriy o'tkazilganda o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, tajriba sinfida tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalar o'rtasida katta farq borligini aniqladik.

“Yuqori” daraja bo'yicha 2-A tajriba sinfda tajriba avvalida 4 nafar (14.2%) bo'lgan bo'lsa, tajriba so'ngida 7 nafar (25.0%) bo'lgan, samaradorlik 10.8%ga oshgan, 3-A tajriba sinfda esa tajriba avvalida 6 nafar (20.7%) bo'lgan bo'lsa, tajriba so'ngida 9 nafar (31.0%) bo'lgan, samaradorlik 10.3%ga oshgan.

“O'rta” daraja bo'yicha 2-A tajriba sinfda tajriba avvalida 11 nafar (46.4%) bo'lgan bo'lsa, tajriba so'ngida 15 nafar (60.7%) bo'lgan, samaradorlik 14.3%ga oshgan, 3-A tajriba sinfda esa tajriba avvalida 13 nafar (44.8%) bo'lgan bo'lsa, tajriba so'ngida 16 nafar (55.2%) bo'lgan, samaradorlik 10.4%ga oshgan.

“Quyi” daraja bo'yicha 2-A tajriba sinfda tajriba avvalida 13 nafar (46.4%) bo'lgan bo'lsa, tajriba so'ngida 6 nafar (21.4%) bo'lgan, samaradorlik 25.0 %ga

oshgan, 3-A tajriba sinfda esa tajriba avvalida 10 nafar (34.5%) bo'lgan bo'lsa, tajriba so'ngida 4 nafar (13.8%) bo'lgan, samaradorlik 20.7 %ga oshgan.

Tajriba sinfining natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2-A sinfda "yuqori" ko'rsatkich bo'yicha samaradorlik 10.3 % ga, "o'rta" daraja bo'yicha samaradorlik 14,3 %ga, "quyi" daraja bo'yicha samaradorlik 25.0 %ga oshganini ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shunday, 3-A sinfda "yuqori" ko'rsatkich bo'yicha samaradorlik 10.3 % ga, "o'rta" daraja bo'yicha samaradorlik 10.4 %ga, "quyi" daraja bo'yicha samaradorlik 20.7 %ga oshganini ko'rishimiz mumkin.

Qiziqarli o'yin-topishmoq orqali o'tkazilgan tadbir o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Ikkinchi bosqich yakunida ham biz 2-, 3-, 4-sinf o'quvchilari mustaqil fikrlash darajalarini shu tadbir asosida tekshirib ko'rdik. Natijalar quyidagicha bo'ldi:

### 2.3.2-jadval

#### O'yin-topishmoq asosida aniqlangan 2-sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash darajalari

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	2-A sinf	2-B sinf	2-A sinf	2-B sinf	2-A sinf	2-B sinf
	Taj.sinfi	Naz.sinfi	Taj.sinfi	Naz.sinfi	Taj.sinfi	Naz.sinfi
2-sinf o'quvchilari (jami 54 nafar)	7/10	5/6	12/16	13/15	9/2	11/5
Foiz hisobida (%)	25.0/35.7	19.2/23.0	42.8/57.1	50.0/57.7	32.1/7.15	42.3/19.2

#### O'yin-topishmoq asosida aniqlangan 3-sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash darajalari

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	3-A sinf	3-B sinf	3-A sinf	3-B sinf	3-A sinf	3-B sinf
	Taj.sinfi	Naz.sinfi	Taj.sinfi	Naz.sinfi	Taj.sinfi	Naz.sinfi
3-sinf o'quvchilari (jami 59 nafar)	8/11	5/7	13/14	12/13	8/1	13/6
Foiz hisobida	27.6/37.9	16.6/23.3	44.8/48.2	40.0/43.3	27.6/3.5	43.3/20.0

Izoh: (8/11) kasr surati (8) tajribagacha, maxraji – (11) tajribadan keyingi ko'rsatkich.

Tajriba davomida olingan javoblarda nazorat va tajriba sinflari o'quvchilarining javoblari o'rtasida sezilarli farq bor. Yuqoridagi jadvallarda har ikkala guruhning javoblari natijalari berilgan. Yakuniy tahlillar shuni ko'rsatdiki, bu bosqichda nazorat sinflari o'quvchilarining javoblari deyarli oldingi javoblari darajasida bo'lib, o'quvchilar ushbu materiallarni an'anaviy usulda o'zlashtirishda davom etganlar, xolos. Ularning mustaqil fikrlash darajalari deyarli o'zgarishsiz qolgan.

Tajriba sinflari o'quvchilarining bilimlari doirasi, mustaqil fikrlash darajalari esa keyingi jadvalda yana bir bor yuqori darajaga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu guruhga mansub o'quvchilar murakkabroq tushunchalarni ham o'zlashtirganlar, dars davomida o'rganilgan mavzularni mustaqil tahlil qila boshlaganlar. Bunday mustaqil fikrlash esa tajriba sinflari o'quvchilari dunyoqarashida katta ijobiy o'zgarishlar bo'lganligini ko'rsatadi.

Demak, yuqorida keltirilgan dalillardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ijodiy yondashishni taqozo etadigan topshiriqlar ustida ishlash o'quvchilarning mustaqil fikrlash doirasini yanada kengaytiradi. Dars jarayonida noan'anaviy usullardan foydalanish faolligini oshiradi, o'quv-biluv ko'nikma va malakalarining shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

O'quvchilarni boshlang'ich sinfdanoq mustaqil fikrlay oladigan qilib tarbiyalash barkamol shaxs tarbiyasining muhim mezonlaridan biridir. Ona tili ta'limi va o'qish darslari bu borada katta imkoniyatlarga ega.

## **II-bob yuzasidan xulosa**

Ma'lumki, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligi ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omildir. Boshqacha aytganda, ta'lim natijasi samaradorligining yuqori, o'rta yoki past darajada bo'lishi o'qituvchining o'quvchilar bilan qanday munosabat o'rnatganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonida ham o'qituvchining o'quvchilarga munosabati, ularning o'z



fikrlarini erkin ayta olishiga imkon berilishi, ta'lim jarayonida «subyekt-subyekt» munosabatining o'rnatilishi muhim ahamiyatga egadir.

1. O'tkazilgan tajriba sinov ishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvga o'rgatish jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan teng hamkorlik munosabati katta ahamiyatga egaligi isbotlandi.

2. O'quvchi ta'lim jarayonida o'zini erkin, faol ishtirokchi sifatida his qilsagina uning bilimlarni o'zlashtirishi samarali kechadi.

3. Hamkorlik munosabatini shakllantirishda ishtirokchilarning fazoviy joylashuviga e'tibor qaratish zarur.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga o'rgatishda o'quvchilarni dars jarayonida mustaqil ishlash va muammoli izlanish metodi, didaktik o'yinlar va o'qituvchi-o'quvchi hamkorlik munosabati asosida tashkil etilsa, samaradorlik oshadi.

### **Umumiy xulosa va tavsiyalar**

Tajriba-sinov ishlari yakunlari tahlili farazimizning asosli ekanligini ko'rsatdi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi yuzasidan maktablarda olib borilgan tajriba sinov ishi jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fikr-mulohazalari darajalarini bilish maqsadida anketa so'rovlari, test topshiriqlari bilan murojaat

qilindi. Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajalari davr talabiga javob bermaydi.

Buning turli obyektiv va subyektiv sabablari bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim jarayonini bir xil uyushtirishi, darslarni zerikarli o'tayotganlari, ta'lim masalasiga ijodiy yondashmaganlari va o'quvchilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatmaganlari asosiy kamchiliklar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishda o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogic muammo ekanligi asoslangan bo'lib, mustaqil fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirilgan, oila-maktab-mahalla hamkorligi kontsepsiyasining mohiyati ochib berilgan hamda mavjud holati tahliliy o'rganilgan.

Kichik maktab yoshi o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish murakkab jarayon hisoblanib, bunga ta'sir etuvchi ko'plab obyektiv va subyektiv hamda ijtimoiy omillar mavjuddir. Shularni inobatga olib, ish mazmunida mustaqil fikrlashni shakllantirish texnologiyasi va uning didaktik ta'minoti keltirilgan.

Ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan tavsiyalar va dars ishlanmalari asosida uyushtirilgan tajriba-sinov ishlari kutilgan samarani berdi. Bunday darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslariga bo'lgan qiziqishlarini oshirdi, ularda bilimlarni o'zlashtirishga ishtiyoq uyg'otib, mustaqil fikrlash qobiliyatlarining shakllanishiga yaqindan yordam berdi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., “O'zbekiston” nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2008-y. – 40 b. 8-11 betlar.
2. O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1997-y. 296 b. 23-27 betlar.

3. O‘zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq”,1997-y. 31-bet.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: “Sharq” nashriyoti, 1999-y. –248 b. 14-bet.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq” nashriyoti, 1997-y. 9-bet.
6. Karimov I.A. Bizdan obod va ozod vatan qolsin. №2. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1996-y. – 380 b. 96-97 betlar.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999-y. – 410 b. 5-bet.
8. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1998-y. 625-626 betlar.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2010-y. – 176 b. 61-bet.
10. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU. 2003-yil. 174 6. 92-bet.
11. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma). – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006-y. – 160 b. 66-bet.
12. Jalilova M., Ne‘matova G. Takrorlash mashg‘ulotlarini «Topqirlar bellashuvi» tarzida o‘tkazish //J. Til va adabiyot ta’limi. -1994.-№ 2-3. 36-37-betlar.
13. Jumaxo‘jaev A. Istiqlol va ona tilimiz.–Toshkent: Sharq, 1998.
14. Ziyodova T. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 1995. -141 b.
15. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Oliy o‘quv yurti uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2000.
16. Ikromova R. , Azizova A., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili: 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. -224 b.

17. Inog‘omova S. Mantiqiy fikrlash // J. Boshlang‘ich ta‘lim. 2000. №2. – 20-21 betlar.
18. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiya yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish. –TDPU, 2004. -35 b.
19. Yo‘ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta‘lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. – Toshkent, 1997. – 49 b.
20. Karimova V. Psixologiya. –Toshkent: Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. -203 b.
21. Karimova V., Sunnatova R., Tojiboeva R. Mustaqil fikrlash. – Toshkent: Sharq, 2000. –112 b.
22. Karimova V., Sunnatova R. Mustaqil fikrlash bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish yuzasidan uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2000. – 193 b.
23. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. (Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma). – T.: “Turon-Iqbol”, 2006-y. – 112 b. 13-bet. 11-12 betlar.
24. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Tib-kitob”, 2009-y – 184 b.
25. Ziyomuhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o‘zbek milliy modeli. – T.: “Lider press”, 2009-y. – 104 b. 56-bet.
26. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari tarbiyachi-o‘qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) –T.: Iste‘dod, 2010-y. –141 b. 34-37 betlar.
27. Yo‘ldoshev J.G‘., Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. “Interfaol ta‘lim sifat kafolati” (Bolaga do‘stona munosabatdagi ta‘lim). – T.: 2008-y. – 172 b. 11-bet.
28. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: “Fan va texnologiya”, 2008-y. – 132 b. 20-bet.
- Yo‘ldoshev J.G‘., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2009-y. – 492 b. 41-42 betlar. 48-49 betlar.
29. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To‘ychiyeva S.

Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.

30. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-moliya». 2010y. B.97-99

31. Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent, 2003. – 276 b.

32. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Ped.fan.nom.disc. Toshkent, 2002.b.

33. Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari: Psixol.fan.dok.... diss. avtorefereti. – Toshkent, 2005. – 38 b.

34. Nishonova Z. Mustaqil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // J. Xalq ta'limi. – 2001. - №1. – 34-37-betlar.

### **Internet saytlari**

<http://www.Norma.uz>. O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to'plami sayti.

<http://www.ziyo.net.uz>. O'zbekiston respublikasi talim sayti. <http://www.Uzedu.uz>,

e-mail:

[info@uzedu.uz](mailto:info@uzedu.uz) O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi qarorlari.

## **ILOVALAR**

**1-ilova**

### **TOPISHMOQLAR**

#### **Tabiat haqida**

- |   |  |
|---|--|
| 1. Ko'k sandig'im ochildi, ichidan zar<br>sochildi. (osmon) | 10. Bir parcha patir, olamga tatir. (oy) |
| 2. Bir parcha patir, olamga tatir. (oy)                     | 11. Izi bor, soyasi yo'q. (suv)          |
|   | 12. Osmonda uchar, qanoti yo'q. (bulut)  |

3. Izi bor, soyasi yo‘q. (suv)
4. Osmonda uchar, qanoti yo‘q. (bulut)
5. Meni so‘raydilar, ko‘rinsam qochadilar. (yomg‘ir)
6. O‘tda yonmaydi, suvda botmaydi. (muz)
7. Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar. (shamol)
8. Ko‘k sandig‘im ochildi, ichidan zar sochildi. (osmon)
9. Uzun terak, ichi kovak. (qamish)

13. Meni so‘raydilar, ko‘rinsam qochadilar. (yomg‘ir)
14. O‘tda yonmaydi, suvda botmaydi. (muz)
15. Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar. (shamol)
16. Qo‘lsiz, oyoqsiz, gul solar sovuqda. (deraza qirovi)
17. Tebranadi, joyi yo‘q. (zilzila)
18. Oltindir, oltincha sotilmas. (vaqt)

#### **Odam va uning xislatlari haqida**

- |   |   |
|---|---|
| <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bir to‘qayda yetti teshik. (og‘iz, burun, quloq, ko‘z)</li> <li>2. Kechasi yopiq, kunduzi ochiq. (ko‘z)</li> <li>3. Eshitadi ko‘rmaydi, ko‘radi eshitmaydi. (quloq, ko‘z)</li> <li>4. Teg desam tegmaydi, tegma desam tegadi. (lab)</li> <li>5. Katta-kichik besh o‘rtoq, uyushsa misli to‘qmoq. (barmoqlar)</li> </ol> | <ol style="list-style-type: none"> <li>6. Kichkina oxurcha, ichi to‘la mixcha. (og‘iz, tish)</li> <li>7. O‘q emas, o‘qdan o‘zar. (fikr)</li> <li>8. Bir to‘kilsa, qayta to‘lmas. (obro‘)</li> <li>9. Asaldan shirin, zahardan achchiq. (so‘z)</li> <li>10. Kichkina mitti tepdi, yiqitdi. (uyqu)</li> </ol> |
|---|---|

#### **Hayvonot olami haqida**

- |   |   |
|---|---|
| <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mo‘ylovi bor, soqoli yo‘q. (mushuk)</li> <li>2. Soqoli bor, mo‘ylovi yo‘q. (echki)</li> <li>3. To‘rt qoziq, hammaga oziq. (sigirning yelini)</li> <li>4. Uzun quloq, kalta dum. (quyon)</li> <li>5. Qanoti bor uchmaydi, quruqlikda yurmaydi. (baliq)</li> <li>6. Sassiqlik ko‘lda it hurar. (baqa)</li> <li>7. Osti tosh, usti tosh, o‘rtasida chandir bosh. (toshbaqa)</li> <li>8. Yer ustida uzun arg‘amchi. (ilon)</li> <li>9. Azon aytar, namoz o‘qimas. (xo‘roz)</li> <li>10. Qoziq ustida qor turmas. (tuxum)</li> <li>11. Ko‘p yeb, oltin o‘raydi. (ipak qurti)</li> <li>12. O‘zi yo‘qdek, ovozi o‘qdek. (chigirtka)</li> </ol> | <ol style="list-style-type: none"> <li>13. Beli qilday, boshi xumday. (chumoli)</li> <li>14. Quyon emas uzun quloq, Ot emas, to‘rtta tuyuq. (eshak)</li> <li>15. Xavzi qul qulum, oyoq uzun kalta dum. (tuya)</li> <li>16. Kechalikka xov-xov, kunduzlikka vov-vov. (it)</li> <li>17. Tuya desam kattakon, usti keng bir maskan. (fil)</li> <li>18. O‘zi hayvon, sochi ayvon. (arslon)</li> <li>19. Igna po‘stin kiygani, ilon go‘шти yegani. (tipratikan)</li> <li>20. Yer tagida qizil xivich. (chuvalchang)</li> <li>21. Qoragina popush, devorga yopish. (kaltakesak)</li> <li>22. Gala-galani ko‘rdim, ko‘chada gadoyini ko‘rdim. (tovuq)</li> <li>23. Oq bo‘ldi, ola bo‘ldi, ichidan chiqdi qora bo‘ldi. (jo‘ja)</li> </ol> |
|---|---|

#### **Osmon, yer, suv, tabiat hodisalari haqida**

- |  |   |
|--|---|
| <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kechasi ochilar, osmonga sochilar. (yulduz)</li> <li>2. Qozonda emas qaynaydi, qishin yozin</li> </ol> | <ol style="list-style-type: none"> <li>7. O‘zi yo‘q, ovozi bor. (momoqaldiraq)</li> <li>8. Biri sepadi, biri ichadi, biri o‘sadi. (yomg‘ir, yer, o‘simlik)</li> </ol> |
|--|---|

- tinmaydi. (buloq)
3. Oppoq sochli boshlari, daryo bo‘lar yoshlari. (tog‘)
  4. Ko‘zga ko‘rinmas, qo‘lga tutilmas. (havo)
  5. Qora biyam qalt etdi, qovurg‘asi yalt etdi. (bulut)
  6. Uzun-uzun yo‘l ketdi, Uzun bo‘yli qiz ketdi, Toqqa borib taq etdi, Sirg‘alari yalt etdi. (yashin)
  9. Saman otim soy yoqalab keladi. (sel)
  10. Oppoq-oppoq oppog‘im, oppoqqina bodrog‘im. (do‘l)
  11. Elakdan un elandi, yerning usti belandi. (qor)
  12. Bir kosa sut, olamga dud. (tuman)